2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 92 (1153), 2024-yil 14-may, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

XITOY BILAN HAMKORLIK JADAL RIVOJLANIB BORAYOTGANI MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-may kuni Hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston — Xitoy hukumatlararo qo‘mitasining navbatdagi yig‘ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo‘lib turgan Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi Bosh vaziri o‘rinbosari Lyu Gochjun boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Xitoy delegatsiyasi rahbari O‘zbekiston yetakchisiga XXR Raisi Si Szinpin va Davlat kengashi Bosh vaziri Li Syanning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish va barcha sharoitlarda strategik sheriklik munosabatlarini chuqurlashtirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi. Joriy yil yanvar oyida Xitoyga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrif yakunida erishilgan kelishuvlar ijrosining borishi tahlil qilindi.

Qo‘mita faoliyati samarali natijalar berayotgani, tovar ayirboshlash va jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi barqaror oshayotgani, muntazam aviaqatnovlar soni ko‘payib borayotgani, madaniy tadbirlar faol o‘tkazilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Savdo ko‘rsatkichlarida muvozanatni ta’minlash va mamlakatimiz mahsulotlarining Xitoy bozoriga kirishi uchun qulay sharoitlar yaratish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida muhim investitsiya loyihalarini jadallashtirish, hududlar kooperatsiyasini kengaytirish, gumanitar, ta’lim va turizm dasturlarini amalga oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bundan tashqari, “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish loyihasi bo‘yicha ishlarning amaliy bosqichini tez fursatda boshlash bilan bog‘liq jihatlar muhokama qilindi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

GEOLOGIYANING MUHIM YO‘NALISHIDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-may kuni ko‘mir qazib chiqarishni oshirish rejalari taqdimoti bilan tanishdi.

Aholi va iqtisodiyotning o‘sib borayotgan ehtiyojini ta’minlash uchun energetikaning barcha yo‘nalishlari rivojlantirilmoqda. Jumladan, muayyan tarmoqlarda ko‘mirdan foydalanish qo‘l keladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, yurtimizdagi ko‘mir zaxiralari qariyb 2 milliard tonnani tashkil etadi.

Bu imkoniyat ishga solinib, ko‘mir qazib olish hajmi izchil oshirib kelinmoqda. Xususan, 2016-yilda bu ko‘rsatkich yiliga 4 million tonnadan kam bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 6 million 550 ming tonnaga yetdi.

Davlatimiz rahbari konlarga investorlarni jalb qilib, yangi loyihalarni amalga oshirish zarurligini aytgan edi. O‘tgan yili bu borada sezilarli siljish bo‘lib, tadbirkorlar tomonidan 369 ming tonna ko‘mir qazib chiqarildi.

Taqdimotda sohadagi rejalar haqida ham axborot berildi. Qayd etilganidek, bu yil ko‘mir qazib chiqarish 8 million tonnaga yetkaziladi. Shundan 900 ming tonnasi tadbirkorlar tomonidan olinadi. “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatida yiliga 500 ming tonna ko‘mirni boyitish uskunasi ishga tushiriladi.

Surxondaryo, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlaridagi to‘rtta maydonda geologiya ishlari olib borilmoqda va kelgusi yilda qazib chiqarishga yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, ilg‘or xorijiy tajribani qo‘llagan holda ko‘mir qatlamlarini baholash va burg‘ilash ishlari davom ettirilmoqda. Bularning natijasida 2025-yilda ko‘mir qazib chiqarish hajmini 10 million tonnaga yetkazish rejalashtirilgan.

Mutasaddilarga sohada xalqaro standartlarni joriy etib, ko‘mir sifatini oshirish, investitsiya loyihalarini jadallashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘zA

OSIYO XOTIN-QIZLARI FORUMI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli Forum qatnashchilari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, siz azizlarni — dunyoning olis va yaqin mintaqalaridan tashrif buyurgan muhtaram mehmonlarimizni Osiyo xotin-qizlari forumining ochilishi munosabati bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Sizlarni qadimiy va navqiron Samarqand shahrida qizg‘in qutlash hamda o‘zimning yuksak hurmat-ehtiromim va ezgu tilaklarimni yo‘llashdan g‘oyat baxtiyorman.

Ushbu tashabbusimizni faol qo‘llab-quvvatlagan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Kotibi janob Antoniu Guterrishga, anjumanni birgalikda tashkil etib, unda bevosita ishtirok etayotgan BMT Bosh kotibi o‘rinbosari, “BMT-ayollar” tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxus xonim, BMTning Jenevadagi bo‘linmasi rahbari Tatyana Valovaya va Parlamentlararo ittifoq Bosh kotibi Martin Chungong janoblariga o‘zimning chuqur minnatdorchiligimni izhor etaman.

Bugungi Forumda xalqaro tashkilotlar va Osiyo mamlakatlari parlamentlari rahbarlari, senator va deputatlar, hukumatlar a’zolari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari, ko‘plab ishbilarmon va olima ayollar qatnashayotganini katta mamnuniyat bilan ta’kidlashni istardim.

Sizlarning sa’y-harakatingiz bilan yurtimizda ilk bor o‘tkazilayotgan xalqaro anjuman xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalardagi faolligini yanada oshirish, o‘zaro tajriba almashish va do‘stona hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shadi, deb ishonaman.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Bugungi kunda dunyoda jadal rivojlanib borayotgan Osiyo qit’asining barcha mamlakatlari va xalqlari asrlar davomida yagona keng makonda uyg‘un va hamjihatlikda rivojlanib, turli sohalarda yaqin hamkorlik aloqalarini olib borganlar.

Buyuk Ipak Yo‘lining savdo chorrahasida joylashgan Markaziy Osiyo mintaqasi ming yillar mobaynida turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar taraqqiyoti uchun qudratli kuch bag‘ishlagan, yuksak umumbashariy qadriyatlarning ulkan ma’naviy beshigi bo‘lgan.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekiston Osiyo qit’asining ham barcha mamlakatlari bilan uzoq muddatli, keng qamrovli va o‘zaro manfaatli aloqalarni izchil chuqurlashtirib borishga ustuvor ahamiyat qaratayotgani bejiz emas, albatta.

Sayyoramiz aholisining yarmidan ko‘pi istiqomat qilayotgan Osiyo mamlakatlari Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘liq erishish, gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli va ta’sirini keskin oshirish borasida salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda.

Bizning mamlakatimizda ham ayollar jamiyatimizning ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib, ularning huquq va manfaatlarini to‘liq ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalari yangi qabul qilingan Konstitutsiyamiz, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi kabi konseptual hujjatlarda o‘zining to‘liq ifodasini topgan.

So‘nggi yetti yilda O‘zbekistonda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 27 foizdan 35 foizga ko‘tarildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senat a’zolarining 25 foizi ayollardan iborat. Bugun har bir mahallamizda ham ularning o‘z vakillari bor.

Ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan ayollar soni 205 mingdan oshdi. Yuz minglab ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi. Salkam yarim million nafar singillarimiz ish bilan ta’minlandi. Hozirgi kunda oliygohlarda ta’lim olayotgan talabalarning yarmidan ziyodini qizlar tashkil etmoqda.

Bu borada olib borayotgan tizimli chora-tadbirlarimiz xalqaro hamjamiyat tomonidan ham munosib e’tirof etilmoqda. Xususan, Jahon banki indeksida O‘zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etilgani, ochiq gender ma’lumotlar indeksida eng yaxshi 20 ta davlat qatoridan joy olgani bizga alohida mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Qadrli do‘stlar!

Biz Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, rahbarlik qobiliyatini va tadbirkorlik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularga zamonaviy bilim berish, kasb-hunarga o‘rgatish va bandligini ta’minlash, ehtiyojmand va ko‘makka muhtoj ayollarning muammolarini tizimli hal qilish bo‘yicha boshlagan katta ishlarimizni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz.

Zero, bugungi tarixiy o‘zgarishlarning faol ishtirokchisi bo‘layotgan muhtarama ayollarimiz — ortga qaytmas tus olgan demokratik islohotlarimiz va jadal taraqqiyotimizni amalga oshirishda bunyodkor kuch, biz qurayotgan adolatli va tinchliksevar, ko‘p millatli va farovon mamlakatning mustahkam asosidir.

O‘ylaymanki, sizlar ushbu Forumni har ikki yilda o‘tkaziladigan an’anaviy muloqot maydoniga aylantirish bo‘yicha taklifimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaysiz.

Bugungi anjuman natijasida qabul qilinadigan Samarqand deklaratsiyasi asosida kelgusida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Osiyo xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-gumanitar faolligini oshirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyasining qabul qilinishi barchamizning bu boradagi ezgu intilishlarimizning yorqin amaliy ifodasi bo‘ladi.

Fursatdan foydalanib, barchangizga yana bir bor sihat-salomatlik, baxt va omad, Forum ishiga ulkan muvaffaqiyat tilab qolaman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

O‘N BESHTA HUDUDDA IT-SHAHARCHA TASHKIL ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, bu sohada yoshlarni va loyihalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari bo‘yicha axborot berildi.

Davlatimiz rahbari bu haqda o‘tgan yili 20-dekabr kuni Raqamli texnologiyalar vazirligiga tashrifi chog‘ida topshiriq bergan edi.

So‘nggi yillarda bu soha juda tez rivojlanib, mutaxassislar va xizmatlar ko‘payib bormoqda. Xususan, 2017-yilda yurtimizda IT kompaniyalar soni 147 ta bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda 2 mingga yaqinlashdi. Ularda 30 ming xodim yuqori daromadli ish bilan band. 70 mingdan ziyod yoshlar IT bilan mustaqil shug‘ullanyapti.

Joriy yilning o‘tgan to‘rt oyida sohadagi xizmatlar hajmi 20 foizga o‘sdi, 200 million dollarlik eksport qilindi, 5 mingta ish o‘rni yaratildi.

Lekin hududlar kesimida qaraganda, IT xizmatlari va eksportining asosiy ulushi Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi. Mutaxassislarning 80 foizi shu yerda yashaydi.

Shu bois, bu sohani chekka hududlarda ham rivojlantirish maqsadida, IT-shaharchalar tashkil etish rejalashtirilgan.

Loyihaga ko‘ra, bunday maskanlar dastlab 15 ta hududda — Chimboy, G‘ijduvon, Zomin, Sharof Rashidov, Forish, Xatirchi, Pop, Shahrisabz, Qo‘shrabot, Sariosiyo, Sirdaryo, Parkent, Toshloq va Tuproqqal’a tumanlari hamda Xonobod shahrida tashkil qilinadi. Ularda yiliga 10 mingga yaqin yoshlar IT, chet tili va boshqa zamonaviy kasblar bo‘yicha bepul o‘qitiladi.

Prezidentimiz shaharchalar yoshlar uchun qulay joyda bo‘lishi, ularda yuqori malakali mutaxassislar dars berishi zarurligini ta’kidladi.

— Shiddat bilan o‘zgarayotgan davrda hamma sohaga axborot texnologiyalarini biladigan kadrlar kerak. Bu sohada xizmatlar uchun ham, eksport uchun ham eng asosiy resurs bu — malakali mutaxassislar. IT-shaharchalar bu yo‘lda yoshlarga qanot bo‘ladigan, zamonaviy kasblarga o‘rgatadigan tizim bo‘lishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Rivojlangan davlatlarda IT sanoatini rivojlantirishda startaplarni qo‘llab-quvvatlashdan keng foydalaniladi. Yurtimizda ham bunday loyihalar bo‘yicha tanlovlar o‘tkazib kelinmoqda. Lekin bu borada shaffoflikni oshirish, loyihalarga natijadorlik asosida grant ajratish zarurati mavjud.

Shuning uchun IT ta’lim va dasturiy mahsulot yo‘nalishidagi loyihalar bo‘yicha 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan startaplar tanlovini IT-park orqali o‘tkazish taklif etilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu tanlovda ham, xuddi “President Tech Award” tanlovidagi kabi nufuzli xalqaro kompaniyalar tomonidan baholashni yo‘lga qo‘yish zarurligini ta’kidladi.

Sun’iy intellekt dasturlarini yaratish va qo‘llash bo‘yicha ham muvaffaqiyatli ish olib borilmoqda. Jumladan, biometrik identifikatsiyalash uchun “My ID” tizimi rivojlantirildi. Bugungi kunda 28 ta bank va 5 ta davlat tashkiloti mazkur tizimga ulandi. U orqali 8 million 200 mingdan ortiq foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tdi.

“Muxlisa” nomli o‘zbek tilidagi ovozli yordamchi ishlab chiqilmoqda. Ushbu ishlanmani turli zamonaviy texnika vositalariga o‘rnatish mo‘ljallangan.

Raqamli texnologiyalar sohasini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida sun’iy intellekt va kosmik faoliyatga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish vazifasi qo‘yildi.

Shuningdek, taqdimotda Yagona kommunal xizmatlar platformasini joriy etish bo‘yicha ham axborot berildi. Bu onlayn platforma orqali iste’molchilar 8 ta kommunal tashkilot xizmatlari uchun to‘lovlarni amalga oshirishi mumkin bo‘ladi. Unda 14 tadan ortiq idoralar ma’lumotlarini bir nuqtada jamlash hamda avtomatlashtirilgan ravishda taqsimlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

O‘zA

Xalqaro forum

ADOLATLI VA TENG HUQUQLI DUNYO TARAQQIYOTIGA ERISHISH

USHBU MAQSAD OSIYO MINTAQASI XOTIN-QIZLARINI BIR DAVRAGA JAMLADI

Samarqandda “Xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga mintaqaviy yondashuv” mavzusida Osiyo xotin-qizlari forumi bo‘lib o‘tmoqda.

Oliy Majlis Senati, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Tashqi ishlar vazirligi, “BMT-ayollar” tuzilmasi hamkorligida tashkil etilgan xalqaro tadbirda 30 dan ortiq davlatdan 80 dan ziyod nufuzli mehmon — Sharqiy Osiyo, Janubi-sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlarining ayol a’zolari, hukumatlari rahbarlari, 40 dan ortiq davlatning mamlakatimizdagi vakolatxonalari hamda xorijiy tashkilotlar vakillari ishtirok etmoqda.

Forumni Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva ochib, Prezidentimizning tadbir ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigini o‘qib eshittirdi.

Davomi 3-betda

Keyingi yillarda yurtimizda ijtimoiy himoya siyosatini yuritishda bu masalalar yechimiga ustuvor ahamiyat qaratilib, avvalo, qonunchilik asoslari takomillashtirildi. Yangi islohotlar davrida, avvalo, qonunchiligimizda “imkoniyati cheklangan insonlar” atamasi o‘rniga “nogironligi bo‘lgan shaxslar” tushunchasi yuzaga keldi. “Shaxs” degan munosabat ularning huquqlari tan olingani va ro‘yobga chiqishi uchun imkoniyat yaratilayotganini anglatadi, albatta.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 14-may, 92-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘zbekiston tashabbuslari – amalda

HAR BIR YURTDOSHIMIZ DAVLAT E’TIBORINI HIS ETIB YASHAYAPTI

“MEHR” OPERATSIYASI SOKIN OTAYOTGAN TONGLAR, OSUDA TUNLAR, FAROVON KUNLARNING QADRIGA O‘Z VAQTIDA YETMOQ KERAKLIGIGA BIR ISHORADIR

Tinchlik... Bu ne’mat biz uchun nimani anglatadi? Shaharning shovqin-suroni, tinimsiz harakatda yumushlarimiz bilan yelib-yugurib, kamdan kam hollarda o‘zimizga bu savolni beramiz. Oila quramiz, ta’lim olamiz, farzandlarni tarbiyalaymiz, kelajakda qilinajak ishlar uchun rejalar tuzamiz, oldimizga maqsadlar qo‘yamiz. Bir kun kelib kimdir yoki nimadir rejalarimizni tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkinligi haqida shubhalanmaymiz ham. Bularning barchasi — mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik sharofati.

Biroq to‘g‘ri yo‘lda yurib, to‘g‘ri yashashni hammamiz ham birdek anglab yetavermaymiz. Ba’zida inson adashadi, o‘zi uchun nima yomon, nima yaxshiligini bilmaydi. Bu tuyg‘uni boshi devorga urilgachgina tushunadi.

Ayrim hollarda dunyoviy va diniy bilimi yetarli bo‘lmagani uchun turli ta’sirlarga tushib qolib, terrorchi guruhlar qo‘lida o‘yinchoq bo‘lishgacha boradi. Eng yomoni, ayrimlari bu yo‘lda oilasi, aka-ukalari va hatto bolalarini qurbon qiladi. Ammo vaqti kelib, dunyoning olov bo‘lib yonayotgan hududlarida ochlik, pulsizlik, uysizlikdan qiynalib, tahlikalar ostidagi hayotni ko‘rgach, aldanganini, o‘zga yurtda hech kim ekanini anglaydi. Kech bo‘lsa-da, tutgan yo‘li xato ekanini bilib, pushaymonlik tuyadi. Boshiga ne sinovlar tushsa-da, yurtiga qaytish ilinjida yashaydi...

“Mehr” — O‘zbekiston tarixida amalga oshirilgan ilk maxsus gumanitar operatsiya. Prezidentimiz topshirig‘i va bevosita nazorati ostida 2019-yildan boshlab ushbu maxsus operatsiya doirasida xorijiy yurtlarda qiyin sharoitga tushib qolgan vatandoshlarimiz bir necha marotaba mamlakatimizga qaytarildi.

“Mehr-1, 2, 3, 4, 5” operatsiyalari doirasida Suriya, Iroq va Afg‘onistonda chorasiz qolgan yurtdoshlarimiz — ayollar va bolalar O‘zbekistonga olib kelindi. Jumladan, ilk marotaba 2019-yil may oyida Suriyadan 156 nafar, oktabr oyida Iroqdan 64 nafar, 2020-yil dekabr oyida Suriyadan 98 nafar, 2021-yil mart oyida Afg‘onistondan 24 nafar hamda aprel oyida Suriyadan 93 nafar ayol va bola yurtimizga qaytarildi.

Qayerda yashamaylik, qalbimizning tub-tubida yonib turgan bir istak bizni hamisha ona zamin, ota makonimiz sari chorlashdan to‘xtamaydi. Buning nomi — mehr, ya’ni tug‘ilib o‘sgan, bolaligimizga beshik bo‘lgan yurtga talpinish hissidir. O‘zbekistonning “Mehr” tashqi gumanitar operatsiyasi negizida ham aldanib, o‘zga yurtda xor-zorlikda yashab, tinchlikning qadriga yetgan, ortga qaytishga ko‘z tikkan insonlarga yordam ko‘rsatishdek insoniylik siyosati yotadi.

> **“Mehr” — O‘zbekiston tarixida amalga oshirilgan ilk maxsus gumanitar operatsiya. Prezidentimiz topshirig‘i va bevosita nazorati ostida 2019-yildan boshlab ushbu maxsus operatsiya doirasida xorijiy yurtlarda qiyin sharoitga tushib qolgan vatandoshlarimiz bir necha marotaba mamlakatimizga qaytarildi.**

Darhaqiqat, insonparvarlik fazilati doimo o‘zbek xalqi ziynatining o‘ziga xos chizgisi bo‘lgan. Biz nadomat, iztirob chekkanlarni kechiramiz, ehtiyojmandlarga yordam beramiz. Buni o‘z irodasi va qarori bilan Prezidentimiz ham bizga eslatdi. Uyga qaytishganda bu insonlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari emas, balki yillar davomida ko‘rishishni orzu qilgan yaqinlari, qarindoshlari kutib oldi. Jamiyat ulardan qutulishga harakat qilmadi, aksincha, peshvoz chiqib, kundalik tashvishlarini hal etishga yordam bera boshladi. Boisi, ko‘pchilik yaxshi tushunadiki, bu insonlar o‘z xatolari uchun turli darajada badal to‘ladi...

Davlat ularning jamiyatga moslashishi oson bo‘lishi uchun zarur ijtimoiy ko‘maklarni berdi. Bolalar maktab va bog‘chalarga joylashtirildi, ayollar o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha ishli bo‘ldi, kim jiddiy yaralangan yoki jarohati bo‘lsa, tibbiy nazoratga olindi. Ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari yo yo‘qolgan, yo olib qo‘yilgan. Shu bois, ayollarga reabilitatsiya markazlarining o‘zida pasport rasmiylashtirildi. Eng muhimi, bolalar ilk marta tug‘ilganlik haqidagi guvohnomalarni qo‘liga oldi.

Haqli savol tug‘iladi: bu jarayonlarda mahallaning o‘rni qanday bo‘ldi? Yurtga qaytgan ayollar va bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvi bevosita mahalla bilan chambarchas bog‘liq. Mahallalar faollari jonbozlik ko‘rsatib, har bir oila bilan individual ish olib bordi, muammo va kamchiliklarini joyida hal etishga ko‘maklashdi. Ayollarni “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritib, kerakli yordamlar ko‘rsatdi. Ularning kasanachilik, tikuvchilik, xizmat ko‘rsatish sohalarida bandligi ta’minlandi, imtiyozli kreditlar asosida o‘zini o‘zi band qilishiga sharoit yaratildi. Umuman olganda, har bir ayol, har bir bola mahallaning daldasini, qo‘llab-quvvatlashini his etib yashayapti.

Muhim jihat: *yurtdoshlarimizning Vatanga qaytarilishi bilan bog‘liq jarayon dunyo hamjamiyatining diqqat-e’tiborini tortdi. Ko‘plab davlatlar, xalqaro tashkilotlar O‘zbekiston ushbu masalani hal etish bo‘yicha ko‘rgan choralarni yuksak baholadi. Xalqaro ekspertlar fikricha, mamlakatimiz o‘z fuqarolarini harbiy to‘qnashuv hududlaridan olib chiqish bilan faol shug‘ullanayotgan sanoqli davlatlardan biridir.*

Tashqi insonparvarlik operatsiyasi orqali O‘zbekiston davlati va xalqining yuksak kechirimlilik, bag‘rikenglik, olijanoblik kabi ezgu fazilatlari yana bir bor amaliy tasdig‘ini topdi. Hayot yo‘lida adashganlar, nochorlik, afsus va nadomatlardan sillasi qurigan ayollar va bolalar yurtga qaytarildi. O‘zbekiston o‘z fuqarolarining huquq va manfaatlarini, ular qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, himoya qilishga qodirligiga xalqaro hamjamiyat yana bir bor guvoh bo‘ldi.

Bugun yurtga qaytgan vatandoshlarimiz tongni yurakda hadik bilan, o‘qlar ovozi ostida emas, sayroqi qushlarning otashin xonishi, endigina tandirdan uzilgan issiq nonning xushbo‘y ifori, sharqiragan ariq suvlari shovqini bilan qarshi olayotir. Murg‘ak qalblar Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, uning har qarich yerini asrab-avaylashga daxldorlik tuyg‘usi bilan voyaga yetmoqda. Shu ma’noda O‘zbekistonning “Mehr” operatsiyasi bugun sokin otayotgan tonglar, osuda tunlar, farovon kunlarning qadriga o‘z vaqtida yetmoq kerakligiga bir ishoradir.

Jovdat INOG‘OMOV,
O‘zbekiston mahallalari uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari

“Yashil makon”

OROLBO‘YIDA SURXON TAJRIBASI

Atoqli shoirimiz Abdulla Oripov “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” she’rida agar “Qorliklarni makon etgan bo‘lsayding, Mehrim bermasmidim o‘sha muzlarga?” degan edi. “Muzliklar” emas, “tuzliklar”ga mehr bergan qoraqalpoq xalqining kindik qoni tomgan yerga mehru muhabbatini, tom ma’noda, mazkur she’r g‘oyasining amaldagi ifodasi deyish mumkin. Qoraqalpog‘istonni tubdan rivojlantirish maqsadida davlatimiz amalga oshirayotgan yirik loyihalar, keng ko‘lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ayniqsa, mislsiz mablag‘ va resurs evaziga Orolbo‘yi hududida yaratilayotgan o‘ziga xos ekotizim murakkab shart-sharoitda yashayotgan bovurlarimizning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlamoqda.

Orolning qurigan maydonidan ko‘tarilgan tuzli chang-to‘zon tufayli nafaqat Qoraqalpog‘iston, balki butun mintaqa tabiatiga jiddiy zarar yetmoqda. Xususan, Navoiy, Buxoro, Jizzax va hatto Surxondaryo viloyatining eng chekka hududida ham yerning sho‘rlanish holati kuzatilmoqda. Ayniqsa, Termiz, Qiziriq, Angor tumanlari iqlimi bilan Qoraqalpog‘iston iqlimida muayyan umumiylik ko‘zga tashlana boshladi. Dehqonchilik, bog‘dorchilikda muvaffaqiyatga erishish oson bo‘lmay qoldi. Bobodehqonlar-u bog‘bonlar oddiy tirikchilik vajidan ham muammoning oqilona yechimini izlab, mo‘jaz yangiliklar qilishga majbur bo‘lyapti. Ilmiy yondashuvsiz yerdan daromad olib bo‘lmay qoldi-da. Denovlik taniqli tadbirkor Islom Xudoyberdiyev esa uzoq yillik izlanishlardan so‘ng sho‘r yerda bog‘ yaratish yo‘lini topdi.

Angorcha bog‘ yaratish uslubi

Termiz, Qiziriq, Angor tumanlarining aksariyat qismi yarimcho‘l hisoblanib, yarimqumloq va sho‘r yerda ekin-tikin qilish, bog‘ yaratish qiyin. Biroq butun dunyoda demografik o‘sish sur’ati, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi bandligini ta’minlashdek dolzarb masalalar shaharlashuv jarayonini kuchaytirayotgan bir paytda foydalanilmay yotgan, ishlov berish murakkab amaliyot talab qiladigan yaroqsiz yerdan ham unumli foydalanishni talab etadi. Muammo mohiyatini chuqur tushungan surxondaryolik dehqonlar-u bog‘bonlar iqlim sharoiti og‘ir hududlarni o‘zlashtirish orqali kundalik oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, tabiiyki, buning orqasidan daromad orttirishni ham maqsad qilgan. Mashaqqatli jarayon shu ishga bel bog‘laganlardan yangicha yondashuv, tajriba, bilim va ko‘nikma talab qiladi. Ezgu maqsad yo‘lida ozmi-ko‘pmi moddiy yo‘qotish ham bo‘lishi tabiiy.

Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmasligini yaxshi bilgan Islom Xudoyberdiyev 7 milliard so‘m kredit olib, ko‘chat yetishtirishni yo‘lga qo‘ydi. Suvsizlikka chidamli, ignabargli ko‘chatlar parvarishiga alohida e’tibor qaratdi. Tajribali mutaxassislar bilan bamaslahat Termiz, Qiziriq tumanlarining sho‘rxok yerida ko‘chat undirish, bog‘-rog‘ yaratish usullarini tajribadan o‘tkazdi. Surxondaryoda dehqonchilik va bog‘dorchilik sohasida maktab yaratgan O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim Fayzullayev, Nosirxon ota To‘raqulov tajribasidan unumli foydalandi. Sho‘rxok yer go‘ng va biogumus aralashmasi bilan to‘yintirilib, muayyan vaqt sug‘orib turilsa, tuproqning sho‘rini aritib, ko‘chat yetishtirish imkonini berar ekan. Boshqa muammolarni suvsizlikka chidamli ko‘chatlarning o‘zi “hal qilaverarkan”.

Hokimlik bu tashabbusni ommalashtirdi. Sariosiyodan Termizgacha bo‘lgan katta magistral yo‘l chetiga hududning o‘ziga xos iqlim sharoitidan kelib chiqib, har xil mevali va manzarali daraxtlar ektirdi. Subtropik iqlim cho‘llasha borgani sari navlar ham yangilanib, suvsizlikka chidamli sharoitbop ko‘chatlar qadala boshladi. Ko‘p o‘tmay, Surxondaryoning belida yam-yashil belbog‘ paydo bo‘ldi. Natija ijtimoiy tarmoqlar va televideniyeda namoyish qilindi.

— Bir kuni Qo‘ng‘irot tumani hokimi Bekzod Madaminov qo‘ng‘iroq qildi, — deydi Islom Xudoyberdiyev. — Televideniyeda efirga uzatilgan ko‘rsatuvni ko‘rgan ekan, meni Qoraqalpog‘istonga taklif qildi.

Shunday qilib, surxon tajribasi dastlab Qoraqalpog‘istonga ko‘chdi. Aytgancha, “Yashil makon” loyihasi doirasida Qo‘ng‘irot tumanidagi 32 ta davlat muassasasining har biriga ko‘kalamzorlashtirish uchun 62 gektardan yer ajratilgan. Bundan tashqari, shahar atrofi va ichkarisi, yo‘l chetini obodonlashtirish ham ko‘zda tutilgan. O‘tgan vaqtda Qo‘ng‘irot tumani hokimligi, prokuraturasi va shifoxonasiga biriktirilgan maydonlar hamda “Yoshlar” istirohat bog‘i surxon tajribasi asosida ko‘kalamzorlashtirildi.

Yashasin yashillik!

O‘zbekistonning bir-biridan olis uch nuqtasi — Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo va Toshkent — bu ulkan uchburchak ekologiya jonkuyari Islom Xudoyberdiyevning o‘ziga xos “yo‘l xaritasi”, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bir oycha avval u Qoraqalpog‘istonda turib, sho‘rxok yerni ko‘kalamzorlashtirish bilan mashg‘ul bo‘lsa-da, Surxondaryodan Toshkentga, ya’ni “Do‘rmon ijod uyi”ga o‘z hisobidan 400 dan ortiq archa, qarag‘ay ko‘chati jo‘natdi. Maqsad — poytaxt havosini musaffolashtirishga hissasini qo‘shish. Qolaversa, ijod bog‘i yanada so‘limlashib, betakror havosi bilan uzoq yillar qalam ahliga xizmat qilishini istadi.

Islom Xudoyberdiyev bir necha yil muqaddam “Chag‘oniyon Agro tomorqa xizmati” MCHJ tashkil etib, 32 gektar maydonda 20 million tup ko‘chat yetishtirdi. Eron, Rossiya, Turkiya va Xitoydan manzarali, mevali daraxtlar urug‘ini keltirib, noyob ko‘chatlarni iqlimga moslashtirdi. Angor tumanidan 280 gektar yer olib, yarimcho‘lni ko‘kalamzorlashtish uchun 52 ming tup ko‘chat qadadi. Artezian quduqlar qazdirib, suv chiqardi, qatorlar orasiga dehqonchilik qilishni yo‘lga qo‘ydi. Tojikistonga 50 ming dollarlik manzarali daraxt ko‘chati, Eron va Pokistonga 370 ming dollarlik qovun-tarvuz eksport qildi. O‘nlab ishsiz yoshlarni ishli qildi. Qurg‘oqchilik, tuproq eroziyasining oldini olish, toza havo manbai — “yashil o‘pka”ni yashartirishga e’tibor qaratdi.

Mo‘ynoq va Qo‘ng‘irot tumanlarida joylashgan maqbaralarni obodonlashtirish, kutubxona fondini boyitishga hissa qo‘shdi. Surxondaryo tajribasi asosida Qo‘ng‘irotda 1,5 metr chuqurlikdagi 5 gektar maydonni sog‘lom tuproq bilan to‘ldirib, sho‘ri arigan yerda zamonaviy bog‘ barpo etdi.

Ha, o‘zingdan ortib, chog‘roq hovlingni obod qilolmagan bir pallada qariyb 800 kilometr olisdagi yurtdoshing kelib, sen yashayotgan hududni obodonlashtirsa, buning ustiga, Qoraqalpog‘istonda 2 ming gektar yerni ko‘kalamzorlashtirishga bel bog‘lagan bo‘lsa, uning ishlaridan faxr tuyib, o‘zingdan xijolat ham bo‘larkansan, kishi.

Shuhrat AZIZOV,
jurnalist

Ijtimoiy himoya

MAHALLA DARAJASIDAGI XIZMATLAR

EHTIYOJMANDLARGA MADAD BO‘LIB, O‘KSIK KO‘NGILLARDA HAYOTGA UMID UYG‘OTMOQDA

Quvonch va tashvish doim yonma-yon yuradi, deb bejiz aytishmaydi. To‘satdan ro‘y bergan baxtsiz tasodif yoki biror musibat hayotimizni alg‘ov-dalg‘ov qilib yuborgani yetmaganidek, bunday sinovlar qarshisida har qanday inson ojiz bo‘lib qolishi hech gap emas. Toshkentlik Muhabbat opaning taqdiri shunday bo‘ldi. Uch o‘g‘ildan keyin tilab olgan qizi asab tizimining tug‘ma xastaligi bilan dunyoga keldi. Hayotning bu sinovi yetmaganday, oilaviy hayotiga ham darz ketdi. Turmush o‘rtog‘i uni to‘rt farzandi bilan taqdir hukmiga tashlab, ajrashib ketdi.

Muhabbat opaga tanishlari tug‘ma xasta farzandini maxsus muassasalarga topshirishni maslahat berdi. Ammo onaizor xasta bo‘lsa-da, jigaridan ajralishni aslo istamadi. Tabiiyki, bunday vaziyatda bemorga doimiy parvarish kerak. Bu esa onaning ishlashiga imkon bermaydi. Shunday holatda ona va qiz davlatimiz tomonidan ijtimoiy himoyaga olinib, ularga nafaqa to‘lab kelinmoqda. Bundan tashqari, mahallada faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xodim ularning holidan xabar olib, tegishli tartibda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatyapti. Bu ko‘mak va e’tibor o‘ksik ko‘ngilga taskin baxsh etib, hayotga ishonchni kuchaytiradi.

30 yoshli Sarvinoz shunday taqdir sinovini yengib, hayotga yangi nazar bilan qarayotganlardan biri. Turmush o‘rtog‘i jinoyat ustida qo‘lga olinib qamalganida u ikki farzandi bilan og‘ir sinov qarshisida, qiyin ahvolda qolgan edi. Bu ham yetmaganday, turmush o‘rtog‘ining xonadoniga sig‘may, ota uyiga qaytdi.

Tabiiyki, bunday vaziyatda oila ijtimoiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlovga muhtoj bo‘ladi. Avvalo, oilaga bola puli tayinlash uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar kerak. Bu jarayonda otaning pasporti muddati o‘tgani ma’lum bo‘ldi. Mahalla faollari, xususan, ijtimoiy xodim sa’y-harakati bilan fuqarolik pasporti yangilanib, bolalarga nafaqa tayinlandi. Ona ishga, bolalar bog‘chaga joylandi. Shu taxlit taqdir zarbasi qarshisida ojiz qolgan ona va farzandlar ko‘ngliga yorug‘lik kirdi, so‘ngan umidlari yana shu’la socha boshladi.

Davlatning ijtimoiy himoya borasidagi siyosati nechog‘liq hayotiy va samarali ekani ana shunday vaziyatlarda bilinadi. Demokratik qadriyatlarga intilgan har bir davlat inson manfaatiga xizmat qiladigan mexanizmlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga alohida e’tibor qaratadi.

Yaqin-yaqingacha mamlakatimizda davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘ aynan muhtoj fuqarolarga yetib borishi, nafaqa miqdori eng muhim hayotiy ehtiyojlarni qanoatlantirishi borasida talay muammolar bor edi. Ijtimoiy himoya tizimi odamlarni o‘zini o‘nglab olishga emas, yordam kutib yashashga o‘rgatib qo‘ygani ham bor gap.

Keyingi yillarda yurtimizda ijtimoiy himoya siyosatini yuritishda bu masalalar yechimiga ustuvor ahamiyat qaratilib, avvalo, qonunchilik asoslari takomillashtirildi. Yangi islohotlar davrida, avvalo, qonunchiligimizda “imkoniyati cheklangan insonlar” atamasi o‘rniga “nogironligi bo‘lgan shaxslar” tushunchasi yuzaga keldi. “Shaxs” degan munosabat ularning huquqlari tan olingani va ro‘yobga chiqishi uchun imkoniyat yaratilayotganini anglatadi, albatta.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilangani bu jabhadagi ishlarga yangicha ma’no-mazmun bag‘ishladi. Shunga muvofiq, 2023-yil 1-iyunda aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish bo‘yicha farmon qabul qilinib, **Prezident huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.**

Shu bilan birga, ijtimoiy himoyani mahalla darajasida tashkil etish, ijtimoiy xizmat va yordamlarni kompleks yondashuv asosida ko‘rsatish maqsadida tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va mahallalarda ijtimoiy xodim faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ijtimoiy himoya jamiyatda barqarorlik va adolatni ta’minlashning muhim asosidir. Shu bois, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim vazifalardan biriga aylandi. Joriy yil 3-may kuni Prezidentimiz huzurida **ijtimoiy xizmatlar tizimini yanada takomillashtirishga oid takliflar taqdimoti jarayonida bu borada amalga oshirilayotgan ishlar tahlil etilib, ustuvor vazifalar belgilab berildi.**

Aholi, xususan, ayollar va bolalar o‘rtasida tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish ijtimoiy himoya sohasidagi muhim vazifalardan biridir. Oxirgi yillarda Ayollarni moslashtirish va reabilitatsiya qilish markazlari va ijtimoiy maslahatxonalar orqali ruhiy tushkun holatdagi xotin-qizlarga maslahat va tavsiyalar berilib, ijtimoiy yordam ko‘rsatilmoqda. Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi muntazam targ‘ibot yuritilyapti. Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollarga himoya orderi berilyapti. Umuman, bu boradagi ishlar natijasida 2023-yilda qariyb 15,5 mingta oilani yarashtirish, 18,5 mingga yaqin oilaviy nizoni bartaraf etishga erishildi. “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yilgan yangi tizim asosida profilaktika inspektorlari tomonidan xotin-qizlar faollariga taqdim etilgan xulosalarning har birini xonadonbay va fuqarobay o‘rganish orqali ayollarga turli masalalarda yordam ko‘rsatildi.

Ammo bu borada hali yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Xususan, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollarga mahalla darajasida ko‘rsatiladigan xizmatlar yo‘q. Tuman darajasidagi amaliy yordam sifati ham yuqori emas. Shu bois, zo‘ravonlik holatlarida ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishning uch bosqichli yangi tizimini joriy etish taklif qilinmoqda. Unga ko‘ra, mahalla darajasida ijtimoiy xodim, profilaktika inspektori va xotin-qizlar faoli tomonidan tazyiq holati o‘rganilib, doimiy kuzatib boriladi.

Tuman miqyosida “Inson” markazlarida himoya orderi talab qilmasdan psixologik, huquqiy va boshqa turdagi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatiladi. Shifoxonalarning shoshilinch bo‘limlarida birlamchi ko‘mak xonalari tashkil etiladi.

Viloyat darajasida esa reabilitatsiya markazlarida ariza talab etmagan holda, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomasiga muvofiq, 6 oygacha boshpana va chuqur reabilitatsiya qilish uchun psixologik va huquqiy xizmatlar ko‘rsatiladi.

Bundan tashqari, ta’lim va mehnat munosabatlarida zo‘ravonlikning oldini olish choralari ham ko‘riladi. Bunda himoya orderini berish bilan bir vaqtda zo‘ravonni tuzatish dasturi ishlab chiqiladi va “Inson” markazi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi. Ichki ishlar organlari tomonidan zo‘ravonlarning reyestrini yuritish tartibi joriy etiladi.

Zo‘ravonlikka uchragan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar standarti ishlab chiqiladi. Sohada nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati rivojlantiriladi.

— Bugungi kunda aholining o‘n uch toifasiga ellikka yaqin ijtimoiy xizmat ko‘rsatyapmiz, — deydi Mirzo Ulug‘bek tumanidagi “Olijanob” mahalla fuqarolar yig‘ini ijtimoiy xodimi Farida Xudoyorova. — Yangi tizim bo‘lgani uchun, avvalo, sohaga oid huquqiy hujjatlarni sinchiklab o‘rganyapmiz. Dunyo tajribasini kuzatib boryapmiz. Davlat tomonidan ajratilayotgan ijtimoiy ko‘makni maqsadli va manzilli yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratilyapti. Mahallamizda nogironligi bor 39 shaxs, yakka-yolg‘iz 10 nafar keksa istiqomat qiladi. Ularning holidan xabar olib, davlat tomonidan berilgan imtiyozlardan bahramand bo‘lishini ta’minlayapmiz.

Ijtimoiy xizmatlarning bu tarzda mahallada yo‘lga qo‘yilgani aholi uzog‘ini yaqin, mushkulini oson qilayotir. Ayniqsa, nogironligi bor shaxslar, ijtimoiy ko‘makka ehtiyojmand oilalar endi tuman markaziga borib turli idoralarga murojaat qilish, hujjat to‘plab yurishiga hojat qolmadi. Ushbu masalada ijtimoiy xodim o‘zi xonadonlarga kirib borib, aholiga ham maslahat berish, ham amaliy ko‘mak ko‘rsatish ishlarini yo‘lga qo‘ygani xayrli bo‘ldi. Bir so‘z bilan aytganda, bu boradagi ezgu ishlarga alohida e’tibor qaratilayotgani ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi turmushini yaxshilab, o‘ksik ko‘ngillarda hayotga umid uyg‘otmoqda.

Bahor HAZRATQULOVA,
jurnalist

Xalqaro forum

ADOLATLI VA TENG HUQUQLI DUNYO TARAQQIYOTIGA ERISHISH

Ushbu maqsad Osiyo mintaqasi xotin-qizlarini bir davraga jamladi

Boshlanishi 1-betda

Ushbu forumni tashkil etish g‘oyasi BMT Bosh Assambleyasining o‘tgan yili Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan 78-sessiyasida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan edi. Tashabbus xalqaro hamjamiyat va mintaqa davlatlari tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlagani bejiz emas. Zero, globallashuv jarayonlari jadal davom etayotgan bugungi davrda xotin-qizlarning davlat boshqaruvi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-akademik va madaniy-gumanitar sohalardagi faol ishtirokini ta’minlash har qachongidan-da muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, jahon miqyosida siyosiy-iqtisodiy beqarorlik davom etayotgan, turli nizolar, yangi xatarlar xavfi yuqori bo‘layotgan murakkab bir sharoitda mazkur masala dolzarbligi yanada oshmoqda.

Mazkur to‘siqlarni yengib, adolatli va teng huquqli dunyo taraqqiyotiga erishishda xotin-qizlar sa’y-harakatini birlashtirish, boy salohiyatidan oqilona foydalanish, jamiyat hayotining barcha jabhalarida imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish muhim vazifadir. Taraqqiyotning yuksak cho‘qqilarini ko‘zlab ildam borayotgan har bir mamlakat bu masalani siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilab, tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Ana shunday muhim pallada Osiyo mamlakatlari xotin-qizlarining bir davraga yig‘ilib, global miqyosdagi dolzarb masalalar yuzasidan o‘tkazayotgan muloqoti nafaqat mintaqa, balki dunyoda tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. Zero, bugungi kunda Osiyo mintaqasining jahon taraqqiyotida tutgan o‘rni tobora ortib bormoqda. Jumladan, dunyo iqtisodiyotida eng katta ulushga ega davlatlar aynan Osiyo mintaqasida joylashgan. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va boshqa ko‘plab sohalar jadal rivojlanmoqda. Albatta, taraqqiyotning bunday yuksak darajasiga erishishda ayollarning roli, katta hissasini inkor etib bo‘lmaydi.

Yangi Renessans poydevorini barpo etish ustuvor maqsad etib belgilangan yurtimizda xalqimiz, jumladan, xotin-qizlar uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi va bu borada keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, milliy qonunchilik takomillashtirilib, xotin-qizlar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ularning siyosiy-ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatdagi islohotlarga munosib ulush qo‘shishi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar bunga misol bo‘la oladi. Natijada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma’naviy hayotimizda, muhim qarorlar qabul qilinishida xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli ravishda kengayib bormoqda. Qisqa davrda sohaga doir xalqaro standartlarga mos milliy qonunchilik bazasi shakllantirildi. Jumladan, keyingi 5 yilda 80 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi hamda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi va amaliyotga joriy etildi. Gender tenglik siyosatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va to‘laqonli amalga oshirish maqsadida 2030-yilga qadar mo‘ljallangan gender strategiyasi qabul qilindi. Uni barcha soha va tarmoqlarga joriy qilish ishlari jadallik bilan davom etmoqda.

Qonunchilikka normativ-huquqiy hujjatlarni gender ekspertizadan o‘tkazish, genderga asoslangan milliy budjetni qabul qilish, gender audit kabi tushunchalar kiritilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Xotin-qizlar ta’lim, ilm-fan bilan shug‘ullanishi uchun barcha sharoitlar yaratildi. Ayollar uchun imtiyozli kreditlar, maxsus kvotalar ajratildi, magistraturada o‘qiydiganlarning kontrakt to‘lovlari to‘liq davlat byudjetidan qoplab beriladigan bo‘ldi.

Hozir oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning yarmidan ko‘pini xotin-qizlar tashkil etayotgani bu yo‘nalishdagi ishlarning muhim samarasini namoyon etadi. Bunday e’tibor va imkoniyat tufayli ayollar shu paytgacha an’anaviy bo‘lgan ta’lim, tibbiyot, tikuvchilik yo‘nalishlaridan tashqari raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari kabi ilg‘or sohalarga ham faol kirib kelmoqda.

Xalqaro forum mamlakatimizda erishilayotgan ana shunday muhim yutuq va tajribalarni ommalashtirish, mintaqada xotin-qizlarning imkoniyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini oshirish bo‘yicha tajriba almashish uchun o‘ziga xos muloqot maydoni bo‘lmoqda.

Forumning birinchi ish kunida BMTning xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasi, Pekin deklaratsiyasi va Harakat platformasi qoidalarini amalga oshirish bilan bog‘liq xalqaro, mintaqaviy va milliy tajriba hamda innovatsion yondashuvlar keng muhokama qilindi. Xotin-qizlarning ta’lim olishi, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanishi, munosib ish bilan ta’minlanishi uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish xususida fikr almashildi.

Forum doirasida Oliy Majlis Senat raisi T.Norboyeva qator davlatlar parlamentlari hamda nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Shuningdek, oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasida Malayziya, Filippin, Hindiston, Pokiston, Kuvayt hamda Turkiya bilan anglashuv memorandumlari imzolandi.

Forum o‘z ishini davom ettirmoqda. Tadbir yakunida o‘tkazilgan muzokara va muhokamalar natijasi sifatida Samarqand deklaratsiyasi qabul qilinishi ko‘zda tutilgan.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

So‘z — ishtirokchilarga

Konstruktiv muloqot va manfaatli hamkorlik ruhi

Mukarram NURMATOVA,
Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari:

— Bugun xotin-qizlar faoliyati haqida so‘z borganda, gender tenglikni moliyalashtirish degan atama tez-tez tilga olinadigan bo‘ldi. Bu ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, ishbilarmon ayollar huquq va manfaatlarini himoyalash, iqtisodiyot va jamiyat rivojidagi faolligini yanada oshirishga xizmat qiladigan muhim omildir. Mamlakatimizda bu yo‘nalishda bajarilgan ishlar natijasida tadbirkorlik faoliyati bilan band xotin-qizlar ulushi 21 foizdan 37 foizga oshib, 205 ming nafarga yetdi.

Albatta, tadbirkor bo‘lish osongina ishbilarmonga aylanish, degani emas. Buning uchun huzur-halovatdan kechish, biznes bilan bog‘liq qiyinchilik, to‘siqlarni yengib o‘tish kerak bo‘ladi. Avvalo, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, texnologiyalardan xabardor bo‘lishi, eng asosiysi, ularni oila a’zolari qo‘llab-quvvatlashi lozim. Bu borada opa-singillarimizga ko‘mak berishda “mahalla yettiligi” ayni muddao bo‘lmoqda. Dunyoda o‘xshashi bo‘lmagan bunday tizimni joriy etishdan maqsad ham aslida inson huquq va manfaatlarini quyi bo‘g‘indan boshlab samarali himoya qilishdir.

Forumda shu yo‘nalishda yurtimizda qilinayotgan ishlar haqida tadbir qatnashchilariga ma’lumot berdik, mintaqamizning boshqa davlatlari tajribasi xususida o‘zaro fikrlashdik.

Ishonchim komilki, konstruktiv muloqot va qizg‘in muhokamalar ruhida o‘tgan forum gender siyosatining turli sohalari bo‘yicha o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatini oshirish, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashishda hamkorlik va hamjihatlikni mustahkamlashda yangi istiqbollarni ochadi.

Birlashsak, barcha muammolarga yechim topamiz

Sima Sami BAXUS,
BMT Bosh kotibi o‘rinbosari,
“BMT-ayollar” tuzilmasi ijrochi direktori:

— Avvalo, mamlakatingizda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini targ‘ib qilishga sodiqligi, ushbu forumni o‘tkazish tashabbusi uchun O‘zbekiston Prezidentiga minnatdorlik bildiraman.

Bu xalqaro forum ayni vaqtida tashkil etilgani bilan ahamiyatlidir. Tadbirni o‘tkazish uchun Samarqand shahri tanlangani bejiz emas. Tarix va zamonaviylik uyg‘unlashgan bu go‘zal va maftunkor zamin, xuddi tarixda bo‘lganidek, bugungi kunda ham barchani birdamlik va do‘stlikka undaydi.

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoyalashda dunyoda qator ijobiy an’analar shakllanganini qayd etish joiz. Ko‘plab sohalar, jumladan, iqtisodiyot sohasida ham gender tenglik borasida muvaffaqiyatga erishildi. Misol uchun, O‘zbekistonda teng qiymatdagi mehnatga munosib haq to‘lash joriy etildi, xotin-qizlarni sanoat korxonalari va xavfli, deb topilgan ishlarga jalb qilish bo‘yicha cheklovlar olib tashlandi. Biz bu qarorlarni qo‘llab-quvvatlaymiz.

Shu bilan birga, dunyoda yuz berayotgan ko‘plab inqirozlar, ayniqsa, aholining nisbatan zaif qatlami bo‘lgan ayollar va qizlarga ko‘proq ta’sir etayotgani achinarlidir. Har uchinchi ayol hali ham zo‘ravonlik va ta’qiblarga duchor bo‘lmoqda. Har o‘ninchi ayol o‘ta nochor ahvolda yashamoqda.

Ana shunday global muammolarga qarshi kurashish uchun barchamiz bir jamoa bo‘lib harakat qilishimiz lozim. Ushbu forum bu borada yagona qarashlarni shakllantirish, oqilona yechimlarni ishlab chiqish, birgalikda harakat qilish va umumiy hisobdorlikni ta’minlashimizda ajoyib muloqot maydoni bo‘ldi. Shu bois, bizni tarixiy Samarqandda qabul qilgani uchun O‘zbekiston hukumatiga yana bir bor tashakkur izhor etaman.

> **Dunyoda yuz berayotgan ko‘plab inqirozlar, ayniqsa, aholining nisbatan zaif qatlami bo‘lgan ayollar va qizlarga ko‘proq ta’sir etayotgani achinarlidir. Har uchinchi ayol hali ham zo‘ravonlik va ta’qiblarga duchor bo‘lmoqda. Har o‘ninchi ayol o‘ta nochor ahvolda yashamoqda.**

O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASH BORASIDA IJOBIY NATIJALAR QAYD ETILMOQDA

Samarqand shahrida “Xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga mintaqaviy yondashuv” mavzusida o‘tkazilayotgan Osiyo xotin-qizlari forumi ishtirokchilari ushbu xalqaro tadbirning ahamiyati haqida o‘z fikrlarini bildirdi.

Belen Sans LUKE,
“BMT-ayollar” tuzilmasining Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha mintaqaviy direktori:

— Forumda yuqori darajali spikerlarning nutqlarini katta ishtiyoq bilan tingladim. Jumladan, O‘zbekiston Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva hamda “BMT-ayollar” tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxusning ma’ruzalarida qayd etilgan dolzarb masalalar barchamizga turli darajada mas’uliyat yuklaydi. Parlamentlar xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash va ularning barcha sohalarda o‘z o‘rnini topishida muhim rol o‘ynashi kerak. Biz xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga, ularning tashabbuslariga investitsiya kiritishimiz zarur. Shuningdek, barcha darajadagi xotin-qizlar yetakchiligini va fuqarolik jamiyati institutlari bu jarayonning muhim qismi bo‘lishini ta’minlashimiz lozim. Kelgusida ham bu boradagi ishlarni davom ettiramiz.

Sharlotta ADRIAN,
Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi elchisi:

— Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berilayotgani, gender tenglik borasidagi ijobiy natijalar qayd etilayotgani, albatta, katta yutuq.

O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham gender tengligiga alohida urg‘u berilgan. Shuningdek, universitetlarda ayollar ko‘pligiga, xotin-qizlarning moliyaviy imkoniyatlari kengayayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. Bu oldinga qo‘yilgan muhim qadam degani. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bunga chindan ham xayrixoh ekani, albatta, e’tirofga munosib. Bularning barchasi jamiyatni g‘oyalar va innovatsiyalar jihatidan yanada boyitishga xizmat qiladi.

Islohotlar samarasi hududlarda ham ayollar hayotini o‘zgartirmoqda

Gavhar ALIMOVA,
Kattaqo‘rg‘on shahri hokimi,
Oliy Majlis Senati a’zosi:

— Davlatimiz rahbarining “Inson qadrini ulug‘lash avvalo aziz-u mukarram ayollarimizni ulug‘lashdan boshlanadi”, degan so‘zlariga asoslangan islohotlar mamlakatimizda yuritilayotgan insonparvar siyosatning o‘ziga xos ifodasi o‘laroq, butun xalqimiz, ayniqsa, xotin-qizlar hayotida tub o‘zgarish yasamoqda. Buning natijasida xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy faolligi oshib boryapti. Barchamizni xursand qiladigan yana bir jihat shuki, bugun xalqimiz orasida qiz bolani o‘qitish shart emas, u uyda o‘tirishi kerak, degan nomaqbul qarash butunlay barham topmoqda. Yurtimizda ana shunday nufuzli forumlar o‘tishi ham yutuqlarimizning munosib e’tirofi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayni paytda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlar faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni ta’minlash borasidagi amaliy ishlar yanada kengaymoqda. Bu jihatlar hududlar hayotida ham yaqqol aks etayotir.

Misol uchun, Kattaqo‘rg‘on shahrida bugungi kunda boshqaruv sohasida 370 nafar, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarda ming, ta’lim tizimida bir yarim mingdan ziyod opa-singillarimiz samarali mehnat qilyapti. Ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash barobarida ayollarning oila va jamiyatda yetakchilik qobiliyatini yanada oshirish, tashabbuslarini rag‘batlantirish, iste’dodini ro‘yobga chiqarishga alohida e’tibor qaratyapmiz.

“Ayollar daftari” orqali o‘n mingga yaqin ayolga ko‘mak berildi. Tadbirkorlik yoki oilaviy biznesini yo‘lga qo‘yish istagida bo‘lgan ikki mingdan ziyod xotin-qizga imtiyozli kredit ajratildi. Mingdan ortiq opa-singillarimiz kasb-hunarga o‘qitildi. Uy-joyga muhtoj ayollarimizning sharoiti yaxshilandi.

Hali oldimizda turgan muammolar ham talaygina. Bu masalalarni hal etishimizda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish va undan jamiyatimiz rivoji yo‘lida samarali foydalanish muhim vazifamizdir.

Mamlakatimizda ilk bor bo‘lib o‘tayotgan Osiyo xotin-qizlar forumi bu borada biz uchun katta imkoniyat bo‘ldi. Ushbu tadbirda ishtirok etish orqali ko‘plab yangi bilim va tajribaga ega bo‘ldik.

Global sa‘y-harakatlarni umumlashtirish maqsadi

Tatyana VALOVAYA,
BMTning Jenevadagi bo‘linmasi rahbari:

— Gender tenglik nafaqat insonning asosiy huquqi, balki barcha yo‘nalishlarda barqaror rivojlanishning muhim omilidir. Ko‘plab tadqiqotlar ko‘rsatadiki, hayotimizning barcha jabhalarida ayollar va erkaklar teng ishtirok etgandagina jamiyatda muvozanatga erishish mumkin. Shuning uchun diplomatiyada gender tenglik faqat adolat masalasi emas, balki keng qamrovli va o‘zaro mutanosib kelishuvlarga ham zamin yaratadi.

Ushbu forum barcha manfaatdor tomonlar uchun turli sohalarda gender tengsizlikni bartaraf etish bo‘yicha muammolarni muhokama qilish, global sa’y-harakatlarni birlashtirishga imkoniyat yaratgani ayni muddao bo‘ldi. Shu bois, O‘zbekiston hukumati va “BMT-ayollar” tuzilmasiga ushbu muhim forumni tashkil etgani uchun minnatdorlik bildiraman.

Ishonchim komilki, forum butun dunyoda ayollar huquqini himoyalash, qarorlar qabul qilishda faolligini oshirish, sayyoramizda tinchlik va taraqqiyotga erishishda o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Amira FAHMIY,
Misrning O‘zbekistondagi elchisi:

— O‘zbekistondagi faoliyatim davomida turli sohalarda ijobiy islohotlarga guvoh bo‘lyapman. Osiyo xotin-qizlari forumining O‘zbekiston tomonidan o‘tkazilayotganidan juda xursandman. Bu hukumatning xotin-qizlar masalalarini, ularning huquq va imkoniyatlarini ustuvor yo‘nalishlar qatoriga qo‘yayotganidan dalolat beradi. BMT, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa qator nufuzli tashkilotlar vakillarini to‘plab mana shunday dolzarb yo‘nalishda muhokamalar o‘tkazilayotganidan O‘zbekistondagi ayol elchi sifatida faxrlandim.

O‘zbekistondagi har bir ayolga omad tilayman. Ular eng yaxshisiga munosib. O‘zbekiston xotin-qizlarida juda katta salohiyat mavjud. Shuningdek, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab turgan Prezidentingiz bor. Butun dunyo bo‘ylab eng yaxshi qadam, eng yaxshi tajriba bilan mamlakatingizda tanishayotganimiz uchun sizlarni tabriklayman.

“Dunyo” AA
Samarqand

O‘tgan yilning avgust oyidan yurtimizda “Nike” krossovkalari ishlab chiqarila boshlandi. Andijon viloyatidagi “Sino international” xorijiy korxonasi buning uchun 5 yil davomida “Nike” tomonidan talab qilinadigan barcha xalqaro sifat standartlarini to‘liq amalga oshirdi. Muayyan ishlab chiqarish liniyalari yaratilib, ishchilar uchun munosib mehnat sharoitlari va yuqori sifat nazorati tashkil etildi. Nihoyat korxonada kuniga 6 ming juft krossovka ishlab chiqarish quvvati yo‘lga qo‘yildi. Kelgusida yillik quvvatni 3 million donaga yetkazish rejalashtirilgan.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 14-may, 92-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

CHARMSANOAT

O‘ZIMIZNIKIDAN QO‘YMASIN

Milliy brend milliy g‘ururga aylanmoqda

Yurtimizda o‘tkazilgan xalqaro ko‘rgazmalarning birida o‘zimizda ishlab chiqarilgan charm-poyabzallar rastasiga ko‘zim tushdi. Birdan e’tiborimni tortgan bu oyoq kiyimlar narx, sifat va bejirimlik jihatidan hech bir xorij brendinikidan qolishmaydi. Mahalliy tadbirkorlar mahsuloti ekani aytilmasa, farqlay olmaysiz.

Qiziq, oldinlari o‘zimizda ishlab chiqarilgan poyabzallar xarid qilish u yoqda tursin, oldidan bir necha qadam nari chetlab o‘tardik. Hozir esa bu turdagi mahsulotlarimiz ichki bozorda bemalol raqobatga kirishish barobarida, xorijga ham eksport qilinyapti. Xo‘sh, o‘tgan davr oralig‘ida nimalar o‘zgardi?

— Bu, avvalo, charm-poyabzal sohasini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilib, yangi va zamonaviy texnologiyalar kirib kelishi, tadbirkorlarning faol qo‘llab-quvvatlanayotgani mahsuli, — deydi “O‘zcharmsanoat” uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Farhod Nurmuhamedov. — Ya’ni shu tarmoqda biznesini rivojlantirayotgan yurtdoshlarimizga keng yo‘l berilib, qator imkoniyat va imtiyozlar taqdim etildi.

Maqsad charm sanoatini iqtisodiyotimizning drayver sohalaridan biriga aylantirib, bu orqali aholi bandligini ta’minlash, farovonligini oshirish, milliy brend ostidagi mahsulotlarimizni jahon maydoniga olib chiqishdan iborat edi. Buning uchun oldimizga qator vazifalar qo‘yilgan. Xususan, teri xomashyosi, mo‘yna, jun, qorako‘l mahsulotlarini chuqur qayta ishlab, qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, ulardan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega, eksportbop, ichki va tashqi bozor uchun raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish borasidagi ishlarimiz yil sayin kengayib boryapti. Natijada o‘tgan yili charm sanoatida ishlab chiqarish hajmi qariyb 3 trillion so‘mga, eksport hajmi esa 130 million dollarga yetdi. Joriy yilning to‘rt oyida 44,7 million dollarlik eksport qilindi. Eksport geografiyamiz ham kengayib boryapti, xaridor mamlakatlar soni 30 dan oshdi. Shu yildan boshlab Kolumbiya, AQSH, Italiya, Vengriyaga milliy brend ostidagi charm-poyabzal mahsulotlar eksport qildik.

Ayni paytda yurtimiz charm sanoatida mingdan ortiq korxona faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, shundan 534 tasi “O‘zcharmsanoat” uyushmasiga a’zo. Uyushmaga a’zolik, albatta, qo‘shimcha imkoniyatlar beradi, ammo mamlakatimizda mavjud imtiyozlar sohadagi barcha tadbirkorlar uchun birdek amal qiladi.

— Tabiiy charmni tikish juda qiyin, unga hamma ham chiday olmaydi, — deydi Toshkent viloyati Qibray tumanida tadbirkorlik qilayotgan Aleksey Manshayev. — Shuning uchun bo‘lsa kerak, ayni yo‘nalishda mutaxassislar ham, raqobat ham kam. Ammo sohada ko‘plab soliq imtiyozlari mavjud. Har yili ishchilar, texnika, ishlab chiqarish quvvatlarini 10 foiz oshirardik, hozir esa ikki barobar ko‘paytiryapmiz. Ayni paytda korxonamizda 150 dan ortiq kishi ishlab, daromad topyapti.

Tadbirkorning “Kanishka fur” korxonasi tayyorlayotgan charm mahsulotlarining raqobatchisi oz bo‘lsa-da, u tinimsiz yangi dizaynlar ustida ishlab, milliy brendimiz ostidagi charm mahsulotlar turini 300 dan oshirishga ulgurgan. Uning korxonasida “chipta”, “cho‘pon”, “mirshab”, “navro‘z” kabi nomdagi sumkalar bor. Millati o‘zbek bo‘lmagan bu yigit tilimizni chuqur hurmat qiladi, barcha bilan o‘zbek tilida gaplashadi. Dizaynini o‘zi chizadigan mahsulotlariga ham o‘zi o‘zbekcha nom beradi. Milliy brend orqali o‘zbek tilini jahonga tanitish niyatida.

Jahonning mashhur brendi O‘zbekistonda ishlab chiqarilyapti

Bolaligimizda jahonning eng mashhur “Nike”, “Adidas” brendi ostidagi sport oyoq kiyimlarini kiyishga ishqiboz edik. Bu brendlar hozir ham o‘z mashhurligini yo‘qotmagan va raqobatda hamon yetakchilar qatorida. Bu yetakchilik va trenddan tushmaslikning asosiy siri esa sifat hamda eng ilg‘or texnologiyalarda bo‘lsa kerak.

O‘tgan yilning avgust oyidan yurtimizda “Nike” krossovkalari ishlab chiqarila boshlandi. Andijon viloyatidagi “Sino international” xorijiy korxonasi buning uchun 5 yil davomida “Nike” tomonidan talab qilinadigan barcha xalqaro sifat standartlarini to‘liq amalga oshirdi. Muayyan ishlab chiqarish liniyalari yaratilib, ishchilar uchun munosib mehnat sharoitlari va yuqori sifat nazorati tashkil etildi. Nihoyat korxonada kuniga 6 ming juft krossovka ishlab chiqarish quvvati yo‘lga qo‘yildi. Kelgusida yillik quvvatni 3 million donaga yetkazish rejalashtirilgan.

— 2019-yildayoq “Nike” va “Adidas” kompaniyalari O‘zbekistonda o‘z brendi ostida sport poyabzallari ishlab chiqarishga ruxsat bergan edi, — deydi “O‘zcharmsanoat” uyushmasi boshqarma boshlig‘i Shuhrat Aliyev. — Ular qo‘ygan barcha talablar bajarilgach, ishlab chiqarish boshlandi. “Nike” kompaniyasi sport poyabzallari ishlab chiqariladigan har bir mamlakat uchun rasmiy shtrix-kodni taqdim etadi. O‘zbekiston ham ushbu shtrix-kodni olgan va bu Andijondagi korxona jahon brendidagi barcha rusumdagi krossovkalarni ishlab chiqarish huquqiga ega ekanini anglatadi. Ayni paytda yurtimizda “Nike” brendi ostida tikilayotgan krossovkalar Markaziy Osiyo mamlakatlari bozorlariga yetkazib berilyapti, kelgusida Yevropa davlatlarida ham sotiladi. Umuman, hozirgi kunda chetda bizning charm-poyabzal mahsulotlarimizga talab oshib boryapti. Chunki ular sifati va jozibali narxlari bilan ajralib turadi, raqobatbardoshligi yuqori. Hatto milliy brendimiz ostidagi poyabzallar Markaziy Osiyoda yetakchilik qilyapti. Mahsulotlarni to‘liq mahalliy sharoitda, eng zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqaryapmiz. Har yili modaga mos tarzda ikki mingdan ortiq mahsulot modeli yangilab boriladi, yangidan yangi modellar o‘zlashtiriladi. Hozir 50 dan ortiq korxonada tovarlar to‘liq mahalliylashtirilib, turli poyabzal tagliklari, termomaterial, parallon va boshqa tovarlar o‘zlashtirilmoqda. Sohada 100 foiz charm mahsulotlari ishlab chiqarilyapti. Ushbu yo‘nalishda xomashyoga boy ekanimiz imkoniyatlarni yanada oshiradi. Nafaqat teri xomashyosi, balki uning qoldiqlarini ham qayta ishlab, tayyor mahsulotga aylantiryapmiz.

Xomashyo yetarli, ammo...

Chindan, hozir charm sanoatidagi eng asosiy masalalardan biri xomashyodir. Ya’ni xomashyo yetarli, ammo undan to‘g‘ri va to‘liq foydalanilmayapti. Shu yilning 10-may kuni davlatimiz rahbari raisligida charm va ipak sanoatini rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash masalalari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida sohadagi kamchiliklarga e’tibor qaratildi. Keyingi yillarda 25 ta tumanda chorvachilik klasterlari tashkil qilinib, charmga ixtisoslashgan 16 ta kichik sanoat zonasi ishga tushirilganiga qaramay, ayrim hududlarda ishlar lozim darajada tashkil etilmagani tanqid qilindi.

Har sohada muammolar, ish bor joyda kamchiliklar bo‘ladi. Ularni o‘z vaqtida ko‘rish, to‘g‘ri baholash orqaligina aniq yechimlar berish mumkin. Ayniqsa, soha ichidagi tadbirkorlar mavjud muammolarni chuqurroq his qiladi. Davlatimiz rahbari ularni tinglab, takliflarini eshitgani bejiz emas. Yechimlar ham yig‘ilishning o‘zida ko‘rsatilib, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

— Men davlatimiz rahbariga ikkita taklif bilan murojaat qildim, — deydi Samarqand viloyatidagi “SITONI” korxonasi asoschisi va rahbari Aziz Abdullayev. — Birinchisi, sohada mutaxassislar yetishmasligi masalasi. Bu hozir eng dolzarb muammolardan biri, boisi, ish bor, lekin uni amalga oshiradigan, tushunadigan mutaxassislar kam. O‘zim ham eksportni ikki barobar oshirmoqchiman, buning uchun 50 ta ishchi kuchi kerak, lekin tayyor mutaxassis yo‘q. Shu bois, viloyatlarda ixtisoslashgan o‘quv markazlari ochib, ularda tikuvchi, bichuvchi, konstruktor-texnolog, modelyerlarni tayyorlasak, degan fikrni bildirdim. Ikkinchisi davlat tenderlari bilan bog‘liq. Ya’ni hozirgi kunda o‘zida ishlab chiqarishi yo‘q bo‘lgan korxonalar ham tenderlarda qatnashadi. Buni biroz o‘zgartirib, faqat ishlab chiqarishi bor korxonalarning tenderga kirishiga ruxsat berish, nazarimda, to‘g‘ri bo‘ladi. Har ikki taklifim Prezidentimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Mutasaddilarga kadrlar tayyorlashni tizimli amalga oshirish, Samarqand viloyatiga qator xorijiy davlatlardan chet ellik mutaxassislarni olib kelish topshirig‘i berildi. Kooperatsion birjada korxonalar reyestri yaratilib, ularning bino-inshooti, ishchi o‘rni, to‘liq quvvatlari bazasi shakllantiriladigan bo‘ldi. Bu orqali birjaga faqat ishlab chiqaruvchilar kiradigan mexanizm joriy etiladi.

Sohada yechimini kutayotgan yoki ozgina turtki, ko‘mak kerak bo‘lgan boshqa masalalar ham bor. Masalan, tarmoq eksportida birlamchi mahsulot o‘rni yuqori, tayyor mahsulot ulushi atigi 30 foiz atrofida. Terini qayta ishlash darajasi ham yetarli emas. Bunda chorvachilik klasterlaridan to‘la foydalanilmayapti.

— Shu bois, oldimizga yangi vazifalar qo‘yildi. Jumladan, viloyat hokimlari bilan birgalikda charmga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarida 100 million dollarlik loyihalar shakllantiriladi, — deydi “O‘zcharmsanoat” uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Farhod Nurmuhamedov. — Sharof Rashidov va Ohangaron tumanlarida charm klasterlari tashkil qilinadi. Chorvachilik klasterlariga ozuqabop ekin uchun yer hamda zotli qoramol uchun kam foizli kreditlar ajratiladi. Shuningdek, 14 ta kichik sanoat zonasida 100 million dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Bularning hisobiga shu yilning birinchi yarmidayoq poyabzal mahsulotlari hajmini 72,5 million juft, charm-attorlik mahsulotlarini 71,6 milliard so‘mga yetkazish kutilyapti. Bu davrda umumiy qiymati 40,5 million dollarlik 45 ta yangi investitsion loyiha foydalanishga topshirilishi ortidan 2400 ta yangi ish o‘rni yaratilyapti. Asosiysi, eksport tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ulushi ortmoqda. Eksport hajmi esa dastlabki yarim yillik yakunida 86 million dollarga yetishi kutilyapti.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Munosabat

INVESTITSIYALAR – TRANSFORMATSIYANING LOKOMOTIVI

Gidroenergetika suv resurslari mexanik energiyasidan oqilona va samarali foydalanishning eng maqbul yechimi sifatida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Suv oqimi energiyasini elektr energiyasiga aylantirishga xizmat qiluvchi ushbu yirik tabiiy va sun’iy tizim yashil energetikaning ajralmas qismidir.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
pedagogika fanlari doktori, professor

Bugun dunyo bo‘ylab energiya resurslariga talab ortayotgani, uglevodorod xomashyosi zaxirasi kamayib borayotgani yangi muqobil energiya manbalarini topish va joriy qilishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinyapti. Elektr energiyasidan oqilona foydalanish, arzon, ishonchli hamda barqaror zamonaviy energetikani joriy etish kun tartibidagi dolzarb masalaga aylangan.

Ayni paytda O‘zbekistonda 9 gigavattli 22 ta quyosh va shamol elektr stansiyasini qurish ustida ish olib borilmoqda. Prezidentimiz uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida so‘zlagan nutqida ham ushbu masalaga to‘xtaldi. Energetika tarmog‘i samaradorligini oshirish mintaqamiz uchun dolzarbligi, bu borada mamlakatimizda ko‘plab loyihalar ustida ishlar davom etayotganini ta’kidladi.

Uzoqni ko‘zlab qilinayotgan sa’y-harakatlar zamirida mintaqa manfaatlari mujassam ekaniga barchamiz amin bo‘lyapmiz. Zero, 2030-yilgacha 20 gigavattdan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvati barpo etish va energetika muvozanatida uning ulushini 40 foizga yetkazish sari katta qadamlar tashlanmoqda. O‘tgan yilning o‘zida “Masdar”, “Gezhouba”, “China Energy” kabi strategik hamkorlar yordamida 1,4 gigavatt quvvatli yirik shamol va quyosh elektr stansiyalari ishga tushirilgani fikrimiz tasdig‘idir.

“ACWA Power” bilan hamkorlikda “yashil vodorod” ishlab chiqarish loyihasi boshlab yuborilgani ham katta yangilik bo‘ldi. Bunday o‘zgarishlarning muhim jihati shundaki, amaldagi loyihalar davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan yuzaga chiqmoqda.

Davlatimiz rahbari Qirg‘iziston va Tojikistondagi gidroelektr stansiyalarini birgalikda qurish loyihasining strategik ahamiyatini dadil ifoda etgan holda, barcha yetakchi kompaniyalarni ochiq muloqot va amaliy hamkorlikka chaqirdi. Investitsiya diplomatiyasi O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining mustahkam drayveriga aylanib bormoqda. Chunki bugunning talabi shunday: inson va ehtiyojlari dunyo bozorini harakatga keltirish bilan birga, sohalar kelajagini belgilab bermoqda.

Tabiiyki, demografik o‘sish natijasida yurtimizda har yili energiyaga talab 5-6 foizga oshib bormoqda. Tahlillarga ko‘ra, kelgusi 6 yilda mamlakatda elektr energiyasiga talab hozirgi 83 milliarddan 120 milliard kilovatt-soatga o‘sishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkich qayta tiklanadigan energiya manbalari bizga nechog‘liq zarur ekanini anglatmoqda. O‘sish jarayoni esa xalqning yashashga ishtiyoqi, oilalarning farovon turmush sari intilishi hamda davlat siyosatiga ishonchini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston ishtirokida 1860 megavattli Qambarota GESi quriladi. Joriy yil yakuniga qadar yana 2 gigavattdan ortiq yashil energiya quvvati ishga tushiriladi. Natijada yashil energiya quvvatini 18 foizdan 30 foizga oshirish kutilmoqda. Bundan tashqari, ushbu energiyadan foydalanish 2030-yilga borib, jami iste’moldagi energiyaning 50 foizini tashkil etadi.

Shu munosabat bilan xalqaro hamkorlik va elektr energiyasi savdosi bo‘yicha endi qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikda 3,2 milliard dollar qiymatidagi ikkita katta gidroelektr stansiyasi loyihasi amalga oshiriladi.

Qambarota gidroelektr stansiyasi qurilishi loyihasi Qirg‘iziston hududida 5,6 milliard kilovatt-soat ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Mintaqadagi suv resurslarini samarali boshqarish va undan oqilona foydalanish sharoiti yaratilishi barobarida, barcha uchun ham manfaatli loyiha amaliyotga tatbiq etilmoqda.

E’tiborli yana bir masala Tojikiston bilan hamkorlikda Zarafshon daryosida barpo etilishi rejalashtirilgan 320 megavattli Yaman gidroelektr stansiyasidir. Ikki bosqichli ushbu loyiha orqali yillik 430 million kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarishga mo‘ljallangan 100 megavattli stansiya ishga tushiriladi. Bu kabi yirik loyihalarning amalga oshirilishi natijasida mintaqadagi munosabatlar yanada yaxshilanib, o‘zaro ishonch tobora mustahkamlanib boradi.

Iqtisodiy va investitsiyaviy barqarorlik sari faol qadam tashlayotgan O‘zbekiston qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirishga, ekologik muammolarning oldini olishga, qazilma energiya resurslariga talabni oqilona yo‘l bilan qoplash va iqtisodiy taraqqiyotga dunyo ahlini chorlamoqda. Zero, yangi O‘zbekiston kashf etayotgan yangi yo‘llar xalqni yorug‘ manzillarga olib chiqadi.

Bugunning gapi

O‘ZGARISHLARGA MOS ISHLASH KERAK

Yangi farmon shunday talabni qo‘ymoqda

Iqlim o‘zgarishi, sanoat taraqqiyoti, aholi ko‘payishi va boshqa omillar suv zaxirasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa ushbu yo‘nalishda yanada samarali, foydali chora-tadbirlar ishlab chiqish, tejamkorlikka katta e’tibor qaratishni talab etmoqda. Chindan ham egatlarga suvni behuda oqizib qo‘yish vaqti o‘tdi. Aksincha, uning har tomchisidan unumli va maqsadli foydalanish haqida o‘ylash kerak.

Prezidentimiz joriy yil 10-may kuni qishloq xo‘jaligini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish, yerdan samarali foydalanish va sohani ilmiy rivojlantirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishish chog‘ida ham buni ta’kidladi. Mamlakatimizda 3 million gektar yaylov va ekin yeri degradatsiyaga uchragan, 2 million gektarga yaqini turli darajada sho‘rlangan. Ekspertlar iqlim o‘zgarishi sababli 2030-yilga borib, mintaqamizda suv resurslari qariyb 6 foiz qisqarishini ta’kidlayotir.

Shu bois, taqdimotda qishloq xo‘jaligida iqlim o‘zgarishiga moslashish va sohaning iqlimga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha 52 banddan iborat milliy dastur ishlab chiqilgani, uning doirasida sohaga 294 million dollardan ortiq grant mablag‘i jalb qilish nazarda tutilayotgani aytildi. Iqlim o‘zgarishini tahlil va prognoz qilish bo‘yicha markaz tuzilib, 5 ta viloyatda agrometeorologiya stansiyalari joylashtiriladi. Shuningdek, sho‘rga va suvsizlikka chidamli ekinlarni ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Mamlakatimizda suv xo‘jaligi sohasida katta ishlar qilindi. Sohani rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Ushbu ishlarning mantiqiy davomi sifatida hamda tizimli muammolarni hal etish maqsadida shu yil 7-may kuni Prezidentimizning “Suv xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

— Sohada ulkan o‘zgarishlar bo‘ldi, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatilib, transchegaraviy daryolar suvidan foydalanishdagi muammolar yechilyapti, — deydi Suv xo‘jaligi vazirligining strategik rejalashtirish va metodologiya bo‘limi boshlig‘i Xurshid Lapasov. — Mazkur farmon suv xo‘jaligidagi islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unga binoan Suv xo‘jaligi vazirligi barcha manbalar bo‘yicha yagona suv balansini yurituvchi hamda Davlat suv kadastrini tashkil etish va yuritishga oid ishlarni muvofiqlashtiruvchi davlat organi etib belgilandi. Buning o‘ziga xos sabablari bor, albatta. Aytaylik, yer osti suvidan tartibsiz foydalanish natijasida 24 tumanda jami 473 ming gektar maydonda suv sathi pasayib ketgan. Xususan, Jizzax viloyatida 2023-yili 18,9 million kub metr yer osti suvidan foydalanishga ruxsat berilgan bo‘lsa-da, amalda 196,4 million kub metr yoki 10 barobar ko‘p suv olingan. Natijada Yangiobod tumanida yer osti suvi 19, Forish tumanida esa 3 metrgacha tushib ketgan.

Yana bir jihati bor: 54 mingta quduqning soni va quvvati bo‘yicha hisobot yuritib kelinadi, ammo suv hajmi inobatga olinmaydi. Shu bois, bundan buyog‘iga suvga doir ma’lumotlarni taqdim etish, aholi tomorqasida suv hisobini yo‘lga qo‘yish, umumlashtirish hamda suv balansini yuritish tartibi ishlab chiqiladi.

— Farmonga binoan Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyati uch bo‘g‘inga ajratilib, vertikal boshqaruv tizimi tashkil qilinadi, — deydi vazirlikning yuridik bo‘limi boshlig‘i Ravshan Sharopov. — Bu jarayonda yuqori bo‘g‘in davlat suv siyosatini yuritib, regulyator vazifasini bajarsa, o‘rta bo‘g‘in suv obyektlarini ekspluatatsiya qilish, qurish hamda sohaga biznes vakillarini olib kirish, quyi bo‘g‘in esa bevosita iste’molchilarga suv yetkazib berish bilan shug‘ullanadi.

O‘rta bo‘g‘inda mustaqil yuridik shaxs sifatida Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi tashkil qilinadi. Ekspluatatsiya agentligi tarkibiga havza boshqarmalari, magistral kanallar, suv omborlari va nasos stansiyalaridan foydalanish boshqarmalari hamda meliorativ ekspeditsiyalar kiritiladi.

Tashkil etiladigan Suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti esa budjet va xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalarda buyurtmachi sifatida ishtirok etadi. Sohada islohotlar izchilligini ta’minlash maqsadida 22 banddan iborat “yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

Tabiiy manbalardan suv olishda amalda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, sun’iy manbalardan olishda esa Suv xo‘jaligi vazirligi maxsus ruxsatnoma berardi. Buning uchun ruxsatnoma, limit hamda shartnoma rasmiylashtirilardi. Endi bu tizim ham soddalashtirilmoqda. Suv qonunchiligi ustidan nazorat tizimi kuchaytirilib, “Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasiga barcha suv manbalarini nazorat qilish vakolati berilyapti. Jamoatchilik nazoratini rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Transchegaraviy hamkorlik va xalqaro tashkilotlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo‘lida “Amudaryo” va “Sirdaryo” havzalari suv xo‘jaligi birlashmalari hamda “Markaziy Osiyo davlatlararo suv xo‘jaligi komissiyasi” ilmiy markazi faoliyatini takomillashtirish nazarda tutilgan. Masalan, Qashqadaryo viloyatining katta qismi Turkmaniston hududidan, Amudaryodan nasos orqali sug‘oriladi. Bu jarayonda boshqarma xodimlarining Turkmanistonga o‘tib ishlashiga to‘g‘ri kelardi. Tabiiyki, bu oson jarayon emas. Shu bois, hozir ushbu qiyinchiliklar bosqichma-bosqich bartaraf etilyapti.

Bundan tashqari, sohada raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, ilm va amaliyot integratsiyasini ta’minlash, kadrlar salohiyatini oshirish ham doimiy e’tiborda bo‘ladi. Farmon suv xo‘jaligi sohasida zamonaviy boshqaruvni joriy qilish, xodimlar maoshini oshirish, obihayot hisobini yo‘lga qo‘yish, umumlashtirish, balansini yuritish, iste’molchilar uchun qulayliklar yaratishga xizmat qiladi. Binobarin, el-yurt farovonligi, hayotimiz to‘kisligi, dasturxonimiz barakasi suvga bog‘liq.

Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Buyuk o‘zbek yo‘li

Mirzo Ulug‘bek — IKKINCHI RENESSANS ASOSCHISI

Inom MAJIDOV,
texnika fanlari doktori, professor

Dunyo xalqlari tarixida o‘ziga xos shunday tub yangilanishlar davrlari bo‘ladiki, bunday zamonlarda muayyan millat dahosi, uning o‘z salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuvchanlik faoliyati eng yuksak cho‘qqilarga ko‘tariladi. Nisbatan qisqa muddatlarda erishilgan ulug‘ marralar butun jahon ahlini lol qoldiradi. Ayni bir xalq salohiyatining ulkan natijasi bo‘lgan bu kabi olamshumul yutuqlar insoniyat tarixining yorqin sahifalariga aylanadi, dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta turtki beradi. Yer yuzidagi sanoqli xalqlargagina nasib etadigan bunday yuksak ko‘tarilish va taraqqiyot zamonlari o‘ziga xos Uyg‘onish, ya’ni Renessans davri deb ataladi.

Prezidentimizning “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida “Uchinchi Renessans” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, “Yangi O‘zbekiston — ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish, “Yoshlar — yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash vazifalari belgilandi.

Davlatimiz rahbari bu haqda: “Men ishonaman — ko‘pni ko‘rgan, mard va olijanob, mehnatkash va bag‘rikeng xalqimiz bilan birgalikda yangi O‘zbekistonni — inson tinch, ozod va farovon yashaydigan, ezgu maqsadlarini emin-erkin amalga oshiradigan davlat va jamiyatni albatta barpo etamiz. Buning uchun bizda barcha siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy asoslar, eng muhimi, kuchli xohish-iroda va qat’iy intilish bor”, degan edi.

Bugungi kunda yangi O‘zbekiston strategiyasi xuddi shunday hayotbaxsh xususiyat kasb etmoqda, xalqimizni yorug‘ kelajakka chorlab, yangilanishga safarbar qilyapti. Umumiy maqsadlar yo‘lida birlashtirib turadigan yaxlit ma’naviy asos va mezonga aylanib bormoqda. O‘z kuch va imkoniyatlarimizga ishonch bizni yangi O‘zbekistonni barpo etish va yangi Uyg‘onish davri poydevorini yaratishdek ulug‘ maqsad yo‘lida birlashtirib, yanada kuchli hamda mustahkam qilmoqda.

Asriy orzu xalqimiz erishgan Birinchi Renessansga va ilk o‘rta asrlardagi ma’rifiy uyg‘onish davriga asos bo‘lgan, uning ma’naviy poydevori sifatida xizmat qilgan. Ajdodlarimiz armonlari o‘sha davrda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o‘z talqinini topgan adolat hamda adolatparvarlik g‘oyalarida mujassam bo‘ldi.

Bu orzu Sohibqiron Amir Temurni jahon sahnasiga olib chiqdi va Temuriylar Renessansi, Ikkinchi Uyg‘onish davri g‘oyalari va xalqimizning bunyodkorlik faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Markazlashgan qudratli davlat va qonun ustuvor bo‘lgan adolatli jamiyat g‘oyasida mujassam bo‘ldi. Aynan xalq armonini ro‘yobga chiqarishga intilish Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir davrida nafaqat mamlakat mustaqilligini ta’minlash, balki qudratli davlat barpo etish, iqtisodiyot, madaniyat, san’at va ilm-fan sohalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O‘zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar qilinmoqda. Bu borada qonunlar, Prezidentimizning o‘nlab muhim farmon, qarorlari, konsepsiyalar va dasturlar qabul qilindi. Yaqinda kuchga kirgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi. Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.

Tomirlarimizda ana shunday ulug‘ bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo‘lish, yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezgu burchimizdir. Bu borada yurtimizda mutlaqo yangicha shakl va mazmundagi Prezident maktablari, ijod va ixtisoslashgan maktablar tizimi yaratilganini ta’kidlash lozim. Ushbu maktablarda ta’lim olayotgan ko‘plab o‘quvchilar nufuzli xalqaro tanlovlarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritmoqda. Bunday zukko va bilimdon farzandlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Oldimizda turgan muhim masalalardan yana biri mana shunday farzandlarimiz orasidan yangi avlod Ulug‘beklarini tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Bu yo‘nalishda iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash Ulug‘bek jamg‘armasi faoliyatini alohida qayd etish lozim. Jamg‘arma tomonidan o‘tkazilayotgan “Mirzo Ulug‘bek vorislari” singari ko‘rik-tanlovlar, g‘oliblarni rag‘batlantirish tizimi yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, madaniyat, san’at, ilm-fan, ta’lim sohasida o‘z iqtidorini namoyon etayotgan yoshlar uchun zarur sharoitlar yaratmoqda.

Ulug‘bek ilmga qiziqqani va mamlakat ravnaqini ko‘zlagani tufayli deyarli bir vaqtning o‘zida Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda uchta madrasa barpo etdi. Natijada komillik va ma’rifat sari intilish tuyg‘usi xalqimiz mentalitetidan mustahkam joy oldi. Davr farzandlarini yuksak fazilatli insonlar etib tarbiyalash o‘sha zamon ziyolilarining, ma’rifatparvarlarining hayotiy va fuqarolik e’tiqodiga, orzusiga aylandi.

Mamlakatimizda bir-biri bilan chambarchas bog‘langan ta’lim sohasi — maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, o‘rta maxsus, oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirish bo‘yicha beqiyos o‘zgarishlar kechmoqda. Bularning barchasidan ko‘zlangan maqsad maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy

muassasalarni Uchinchi Renessansning to‘rt uzviy halqasiga, bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuniga aylantirishdan iborat.

Yurtimizda oliy ta’lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilm-fanning yirik o‘choqlariga aylantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Buyuk allomalarimiz qoldirgan ma’naviy merosni o‘rganish va targ‘ib qilish, avvalo, ta’lim tizimida amalga oshiriladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, e’tibor yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratildi. Hatto Konstitutsiyaga o‘qituvchilar haqida modda qo‘shildi. Bu islohotlar tariximiz bilan uyg‘un mohiyat kasb etadi. Zero, ulug‘ bobomiz Mirzo Ulug‘bek ham davlat arbobi, ham olim sifatida madrasalar qurib, o‘zi ham talabalarga ta’lim bergan. Shu jihatlari bilan Mirzo Ulug‘bek jahondagi boshqa hukmdorlardan ajralib turadi.

“Samarqand akademiyasi”ni fransuz faylasufi, yozuvchi va tarixchi olim Volter (1694-1778) alohida e’tirof etgan. U “Ulug‘bek Samarqandda bo‘lib, akademiya (oliy ilmiy tashkilot)ga asos soldi, yer sharini o‘lchashga buyurdi va astronomiya jadvallarini tuzishda ishtirok etdi”, deb yozgan. “Samarqand akademiyasi” 1004-yil Xorazm poytaxtida tashkil etilgan “Donishmandlar uyi” (Ma’mun akademiyasi)dan keyingi ikkinchi “Dorul ilm” edi. “Samarqand akademiyasi” — “Dorul ilm”ga 1429-yil asos solindi.

Mirzo Ulug‘bek astronom va matematik olim, davlat arbobidir. Temuriylar davrining buyuk shoiri Alisher Navoiy u haqda bunday degan edi:

Temurbek naslidin Sulton Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek.

Darhaqiqat, 40 yilga yaqin hukmronlik qilib, rasadxona qurgan va 1018 ta yulduzning jadvalini tuzgan Mirzo Ulug‘bekdek hukmdor jahon tarixida kam uchraydi. Uning asosiy ilmiy asari “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” bo‘lib, 1437-yilda astronomik yilning uzunligini 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniya o‘lchamda aniqlagan. Shu o‘rinda Ulug‘bekning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda kompyuter yordamida tekshirib ko‘rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi. Ya’ni Ulug‘bek antik davrdan buyon o‘rnatilib kelayotgan astronomik standartlarni yangiladi.

Shuningdek, u matematikaga oid “Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola”, astronomiyaga oid “Risolai Ulug‘bek” va tarixga doir “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) asarlari hamda musiqa ilmiga bag‘ishlangan 5 ta risola yozgan. Ulug‘bek 6 ta — bulujiy, axloqiy, tabriziy, shodiyona, usuli ravon, usuli otlig‘ kuylarini ijod qilgan.

Navoiyning “Majolis un-nafois” va Abu Tohirxojaning “Samariya” asarlarida ham Mirzo Ulug‘bek she’rlaridan namunalar keltirilgan. Uning davrida ko‘pgina asarlar arab va fors tilidan eski o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Mirzo Ulug‘bek tashkil etgan boy kutubxonada turli fanlarga oid 15 mingdan ziyod kitob bo‘lgan.

Keyingi yillarda tarixiy shaxslarning faoliyatini, ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tarix fani oldida o‘zbek xalqining mashhur vakillari ma’naviy-tarixiy merosini qayta tiklash masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Bashariyat tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk olim Mirzo Ulug‘bekning hayoti va ijodi ham shular jumlasidan. Jahon ilmiy tafakkuri rivojida munosib o‘ringa ega mashhur olim, ajdodlar merosini ehtiyotkorlik bilan saqlagan o‘ziga xos hukmdor, davlat boshqaruvining ayrim yo‘nalishlarida buyuk ajdodi Amir Temur an’analarini davom ettirgan Mirzo Ulug‘bek shaxsiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shoh va olimning ilmiy-tarixiy merosini o‘rganish an’anasi ko‘p asrlik tarixga ega. Uning hayoti va faoliyatiga daxldor masalalar nafaqat O‘zbekiston, balki G‘arbiy Yevropa, Rossiya sharqshunoslik va tarix maktablari vakillari tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Asosiysi,

yurtimizda XX asr davomida Ulug‘bek hayoti va faoliyatiga oid salmoqli asarlar e’lon qilindi. Bu davrdagi tadqiqotlar, bir tomondan, Mirzo Ulug‘bekning ilmiy-tarixiy merosini o‘rganish borasidagi muayyan yutuqlari bilan, ikkinchi tomondan esa tarixiy voqealarga noxolis baho berishlar bilan ham xarakterlanadi. Mazkur dolzarb muammoning tarixini o‘rganish nafaqat Mirzo Ulug‘bekning hayoti va ijodi bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlardagi o‘zgarishlarni kuzatishni, balki muayyan tarixiy tadqiqotning tarix fani uzviyligini, turli davrlarda davlatchilikning siyosiy va mafkuraviy shakllaridagi umumiy jihatlarini ham namoyon etadi.

Yangi O‘zbekiston orzusi amaliyotga, real voqelikka aylanmoqda. Ammo bu osonlikcha, o‘z-o‘zidan bo‘ladigan ish emas. Yangi jamiyatni barpo etish, avlodlarimiz uchun yorug‘ kelajakni yaratish ehtiyoji barchamizdan ulkan mas’uliyat talab qilayotgani ham bor gap. Muayyan xalq yoki davlat hayoti uchun g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadigan biror fenomen yoki u haqdagi tushuncha va tamoyillar o‘z-o‘zidan, osongina paydo bo‘lmaydi, tasodifan dunyoga kelib qolmaydi. Shu ma’noda har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o‘ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O‘zbekiston fenomeni ham bundan mustasno emas.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g‘oyasi ham tasodifan va quruq yerda paydo bo‘lmagan, albatta. O‘zbek xalqi buyuk tarix va davlat, boy madaniyat yaratgan. Xalqimiz hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, metin irodali, bag‘rikengdir. Avvalambor, milliy strategiyasining mustahkam tayanchi va suyanchi bo‘ladigan tarixiy-ma’naviy omil, ya’ni bizning eng katta boyligimiz — xalqimizda ulkan madaniy meros, intellektual salohiyat mavjudligidir.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish, vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligini oshirishdek ezgu maqsadlarimizga Ikkinchi Uyg‘onish davri g‘oyalari uyg‘un va hamohang ekani, ayniqsa, e’tiborlidir. Mamlakatimizda 1994-yil Mirzo Ulug‘bek yili, deb e’lon qilindi. 1995-yildan O‘zbekiston Milliy universiteti Mirzo Ulug‘bek nomi bilan atala boshlandi.

Universitetimiz nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda birinchi va yetakchi oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi. Universitet bir asrlik faoliyati davomida 100 mingdan ortiq yuqori malakali mutaxassis tayyorlab, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini yetuk kadrlar bilan ta’minlashda katta xizmat qildi va ilm-fanning turli sohalarida jahon e’tirof etgan muvaffaqiyatlarga erishdi. O‘zMU 32 ta rivojlangan davlatning 100 dan ortiq oliy ta’lim va ilmiy muassasasi bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Ulkan ilmiy salohiyatga ega oliygoh mamlakatda tayanch oliy ta’lim muassasasidir. Unda barcha universitetlar uchun davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlari tayyorlanib, ta’lim jarayoniga tatbiq etilmoqda.

Mirzo Ulug‘bek kabi daholar asos solgan an’analar O‘zMU olimlari tomonidan munosib davom ettirilmoqda. Mazkur ilm maskanida faoliyat ko‘rsatayotgan ana shunday ilmiy maktablar jahon ilm ahlining yuksak e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

Bugungi kunda universitetda 14 nafar akademik, 160 dan ortiq fan doktori va professor, 400 dan ziyod fan nomzodi, falsafa doktori va dotsent faoliyat ko‘rsatmoqda, 200 dan ortiq yosh olim va 500 dan ziyod iqtidorli talaba ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Talabalar xalqaro, startap, fundamental, amaliy, innovatsion hamda xo‘jalik shartnomalarida ishtirok etmoqda. Bir asrlik tarixga, boy an’ana va innovatsion g‘oyalarga ega O‘zbekiston Milliy universiteti jamoasi ilmu ma’rifat hamda ta’lim-tarbiya sohasidagi yutuqlarni yanada ko‘paytirish, Vatan ravnaqiga bundan ham munosib hissa qo‘shish, “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” g‘oyasi ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash uchun qat’iyat va shijoat bilan mehnat qilmoqda.

Joriy yilda Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligi keng nishonlanadi. Shu munosabat bilan katta tantanalar va xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazilmoqda. Xususan, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida ham xalqaro konferensiya tashkil etiladi.

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurishda Mirzo Ulug‘bek yaratgan asarlar g‘oyaviy-ma’naviy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning ilmiy merosi yoshlarni vatanparvarlik, tarixga hurmat, yurtga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Shuningdek, uning hayoti, shaxsi, asarlari O‘zbekistonni dunyoga mos ravishda rivojlantirishda, jamiyat a’zolarini yangi O‘zbekiston g‘oyasi asosida birlashtirishda buyuk ahamiyatga ega.

Ilm-fan yutuqlari

“AQLLI” SOAT VA UCH TILDA GAPIRADIGAN SVETOFOR

OLTIARIQ INNOVATSION HUDUDIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISTIQBOLLI LOYIHALAR

Prezidentimizning 2021-yil 1-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, yurtimizdagi 13 tuman, jumladan, Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanini innovatsion hududga aylantirish belgilangan. Farmon ijrosi doirasida yangi innovatsion loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlarini o‘zida mujassam etgan “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti miqdori va doirasi kengayib borayotgani mahsulot sifatini kafolatlangan holda iste’mol bozoriga olib kirishni taqozo etmoqda. Innovatsion hududda bu yo‘nalishda ro‘yobga chiqarilayotgan istiqbolli loyiha har jihatdan samarali ekani bilan ajralib turadi.

“Glomosu” MCHJga tegishli loyiha axborot texnologiyalari yordamida GPRS tizimi orqali yuk avtomobillari yukxonasidagi harorat va namlikni onlayn monitoring hamda meva va sabzavot sifatini nazorat qilish imkonini yaratadi.

Bugun birgina Oltiariq tumani hududida eksport uchun yuk tashiydigan 2000 dan ortiq avtomobil mavjud. Mavsumda har kuni 30 dan ortiq mashina tashqi bozorga yo‘l oladi. Shartnomada belgilangan sifatda mahsulot yetkazib berilgan paytda muzlatkichning xotirasini o‘qib, qanday ishlagani to‘g‘risidagi ma’lumotlar protokol ko‘rinishida taqdim etilishi talab qilinadi. Mazkur xizmat narxi Rossiyada 500-1800 dollarni tashkil etsa, Qozog‘istonda 200-500 dollar atrofida. Bu esa tabiiy ravishda mahsulot tannarxi oshishiga sabab bo‘ladi.

— Innovatsion ishlanmamiz bu boradagi ortiqcha sarf-xarajatlarga barham beradi, — deydi loyiha tashabbuskori, “Glomosu” MCHJ rahbari Xayrullo Qulmatov. — Montaj uchun 6 dona sim ulashning o‘zi kifoya. Shu simlar yordamida avtomobilning yurishi, yo‘nalishi va boshqa parametrlar monitoring qilib boriladi.

Innovatsiya hududda faoliyat ko‘rsatuvchi “Agro e’tibor” MCHJ tomonidan amaliyotga tatbiq etilgan, turli foydali qo‘shimchalar bilan boyitilgan mineral o‘g‘itlar tomorqachi, dehqon va fermerlarning dala bog‘larida yuqori va sifatli hosil yetishtirish imkonini berayotgani bilan e’tiborli. Bu mahsulotlar, birinchi navbatda, ko‘p yillik issiqxonalarda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tdi. Mahsulot tarkibi o‘simlikning mavjudligi asosi bo‘lgan makro (azot, fosfor, kaliy, magniy, oltingugurt, kalsiy) va mikroelementlardan (marganes, rux, mis, bor, molibden, temir) tashkil topgan. U o‘simliklarda modda yetishmovchiligini bartaraf etadi, kasalliklarga qarshi immunitetni kuchaytiradi, suvda parchalanadi. Barg va issiqxonalarda tomchilab sug‘orish tizimi orqali qo‘llash mumkin.

— Mahsulotlarimiz meva va sabzavotdan mo‘l va eksportbop hosil olishda katta samara berayotir, — deydi korxona ish yurituvchisi Doniyorbek Muhammadjonov. — O‘tgan mavsumda foydali qo‘shimchalar bilan boyitilgan 2 tonnadan ortiq innovatsion mineral o‘g‘it sanoat usulida ishlab chiqarildi. Mahsulotga talab ortib bormoqda. Joriy mavsumda iste’molchilarga 10 tonnadan ortiq mahsulot yetkazib berishni ko‘zlab turibmiz. Endi tuproq tahlili o‘tkazadigan zamonaviy laboratoriya yaratish ustida ishlayapmiz. U har bir tomorqa xo‘jaligidagi yer holatiga qarab foydali mineral o‘g‘itlar tavsiya qilish imkonini beradi.

Innovatsiya markazida ishlab chiqarilayotgan quyosh panelli ko‘chma svetoforga talab tobora ortib bormoqda. Dastlab faqat bitta turdagi svetofor ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bugunga kelib turlari ko‘paydi, sifati yaxshilandi, tannarxi arzonlashdi. Sababi, ishlab chiqarishda mahalliy xomashyolardan foydalanilyapti. Endi yig‘iluvchan svetoforlar tayyorlash ham yo‘lga qo‘yildi. Bu muayyan kunlarda aholi va transport qatnovi gavjum bo‘ladigan hududlarda harakat xavfsizligini ta’minlash imkonini beradi.

— Hozir “aqlli” svetoforlar ishlab chiqarish harakatidamiz, — deydi Oltiariq innovatsion markazi rahbari Doniyor Botirov. — Bu murakkab chorrahalarda transport qatnovini tartibga solish, tirbandlikning oldini olishda asqatadi. Yangi qurilma tuman markazidagi chorrahada muvaffaqiyatli sinovdan o‘tdi. Bunda sun’iy intellektdan foydalanyapmiz. Maxsus kameralar chorrahadagi avtomobil soni, harakat imkoniyatlarini mustaqil belgilab, uni tartibga soladi.

Tumanda vodorod yordamida isitiladigan issiqxonalar yaratish bo‘yicha innovatsion

loyiha ham amalga oshirilmoqda. Yangi loyiha “Mirzo Ulug‘bek vorislari” intellektual ko‘rik-tanlovining tuman va viloyat bosqichi g‘olibi bo‘lib, respublikada ishtirok etish uchun yo‘llanma oldi. Qayta tiklanuvchi energiyaga asoslangan innovatsion qurilma kam xarajat va atrof-muhitga mutlaqo zararsizligi bilan e’tiborni tortadi.

“Aqlli” soat innovatsion loyihasi umumta’lim maktablarida o‘ziga xos qiziqishlar uyg‘otmoqda. Ko‘p funksiyali qurilma o‘quv jarayonida belgilangan oraliq tanaffuslarni inson omilisiz belgilash, kirish, chiqish qo‘ng‘iroqlarini tartibga soladi, turli xavflardan ogoh qiladi.

— Tumanda 13 ta innovatsion loyihani qo‘llab-quvvatlash uchun 11 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirilmoqda, — deydi tuman hokimining innovatsion rivojlanish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Abdurashid Isaqov. — Mahalliy xomashyodan magnezit kukuni va u bilan bog‘liq mahsulotlar, ohaktosh, o‘tga chidamli g‘isht, ferrosilitsiy, suyuq shisha, silikat tosh ishlab chiqarishga oid innovatsion loyihalar ham amalga oshirilib, 150 dan ortiq ish o‘rni yaratildi.

Sirasini aytganda, aholi farovonligi, yurt obodligi yo‘lida amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalar ko‘lami keng va rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Davlatimiz rahbari Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida hududdagi eng kenja tuman, Amu bo‘yidagi madaniyat markazi — Bo‘zatov nomi bilan bog‘liq an’anaviy festival o‘tkazilishini aytganida mahalliy yoshlar qatori minglab yurtdoshlarimiz to‘lqinlangani rost. Chindan ham tobora hayajonli, ko‘tarinki ruhda o‘tayotgan «Yoshlar ovozi — Bo‘zatov FEST» respublika tanlovi ertamiz egalari orasidan san’atimizning umidli vakillarini kashf etyapti.

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Shukuh

Yangi yulduzlar

Baxshichilik, an’anaviy ijrochilik, opera, estrada xonandaligi yo‘nalishlari bo‘yicha to‘rt bosqichda saralangan 158 nafar yigit-qiz ayni paytda qoraqalpoqning Bo‘zatovida g‘oliblik uchun qizg‘in kurashyapti.

MAHORAT MAYDONIDA KASHF ETILADI

QORAQALPOG‘ISTONDA “YOSHLAR OVOZI – BO‘ZATOV FEST” RESPUBLIKA TANLOVI DAVOM ETMOQDA

Ilk bor 2021-yili o‘tkazilgan, umumiy sovrin miqdori 2,5 milliard so‘m bo‘lgan tanlov nizomiga bu yil bir oz o‘zgarish kiritildi. Har bir yo‘nalish va yosh toifasida eng yuqori ball to‘plagan besh ishtirokchi super final bosqichida qatnashadi, ya’ni eng kuchlilar kashf etiladi. Har bir yo‘nalish va yosh toifasida 1-o‘rinni egallaganga 50 million so‘m, 2-o‘ringa 30 million so‘m hamda 3-o‘ringa 20 million so‘m pul mukofoti beriladi.

Tanlovning 2021-2022-yillardagi oxirgi bosqichi g‘olib va ishtirokchilari orasidan 4 nafari “Kelajak bunyodkori” medali, 1 nafari “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti, 1 nafari “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi. Shuningdek, 6 nafari “Nihol”, 2 nafari “Yosh ijrochilar” tanlovida, 3 nafari xalqaro musobaqalarda g‘olib va sovrindor bo‘ldi.

Qisqa muddatda festival yulduzlari orasida porlagan Sevinch Jovliyeva an’anaviy xonandalikka yangi ovoz sohibi sifatida kirib kelyapti.

— Ushbu festivalda ikki marta 1-o‘rinni egalladim, — deydi u. — 15 yoshimda “Shuhrat” medali bilan taqdirlandim. Bunga minnatdorlik sifatida milliy maqom san’atimizni dunyoga tanitishga va’da berdim. Italiyada operachilikni o‘rganayotib, nega xorijliklar milliy maqomlarimizni o‘rganmasligi kerak, deb o‘ylardim. Ularga “Yor istab” mustahzod qo‘shig‘ini o‘rgatganimdan keyin Turkmaniston va Hindistondagi do‘stlarimizni ham milliy maqom qo‘shiqlarimizga oshno etdim.

Yangi tartibga ko‘ra, Sevinch kabi tanlovning respublika bosqichida 1-o‘rinni egallaganlar yoshi va yo‘nalishidan qat’i nazar, festivalning kelgusi mavsumida ishtirok etolmaydi.

— Bu galgi festival ishtirokchilari oldingidan ko‘p. O‘z-o‘zidan hakamlar mas’uliyati ham oshadi. Bir-biridan go‘zal chiqishlar, munosib ijrolar namoyish etilayotir. San’at yo‘nalishida alohida qarorlar qabul qilinib, katta tadbirlar o‘tkazilayotir. Jumladan, ushbu festival ham iste’dodlarni kashf etishda muhim ahamiyatga ega, — dedi O‘zbekiston xalq artisti Munojat Yo‘lchiyeva.

Tanlov baxshichilikni keng targ‘ib qilish, folklor an’ana va qadriyatlarini asrab-avaylash, baxshichilik san’ati yosh ijrochilarini rag‘batlantirish hamda iste’dodini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘tgan yili tajriba almashish maqsadida Italiyaga yuborilgan 11 nafar g‘olibdan biri, yosh baxshi Ashurbek Qo‘ziboyev festival hayotida yangi manzillar, ulkan marralarga yo‘l ochganini aytdi. Ushbu yo‘nalishda 23-30 yosh toifasida ishtirok etayotgan namanganlik Abrormirzo Jo‘ramirzayev esa festival yangi ijro maktablari paydo bo‘lishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatli ekani, musiqa san’atimiz yanada ravnaq topishini ta’kidladi.

11-may kuni ishtirokchilar baxshichilik bo‘yicha sinovdan o‘tkazildi. Ertasi kuni operachilar o‘rtasidagi bellashuvlar boshlandi. O‘zbek, qoraqalpoq va jahon opera asarlari ijro etildi. Festival dasturi bo‘yicha an’anaviy xonandalik, estrada yo‘nalishlari bo‘yicha ham munosiblar aniqlanyapti. Bellashuvlardan so‘ng ishtirokchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida diqqatga sazovor maskanlarga sayohatlar tashkil etilmoqda.

Davlatimiz rahbari Qoraqalpog‘istonga tashrifi chog‘ida hududdagi eng kenja tuman, Amu bo‘yidagi madaniyat markazi — Bo‘zatov nomi bilan bog‘liq an’anaviy festival o‘tkazilishini aytganida mahalliy yoshlar qatori minglab yurtdoshlarimiz to‘lqinlangani rost. Chindan ham tobora hayajonli, ko‘tarinki ruhda o‘tayotgan “Yoshlar ovozi — Bo‘zatov FEST” respublika tanlovi ertamiz egalari orasidan san’atimizning umidli vakillarini kashf etyapti. Eng muhimi, festival mamlakatimizning yana bir yangi san’at brendiga aylanib, yangi yulduzlarni kashf etadigan platforma vazifasini ham o‘tayapti.

Bunday tanlovlar nafaqat ertamiz egalarini birlashtiradi, balki ular qalbida milliy ma’naviyatimiz, san’atimizning bebaho durdonalariga cheksiz muhabbat hissini ham tarbiyalaydi. Shunday ekan, kamolot pillapoyasida turgan, ertangi kunga ishonchi uyg‘oq, qalbi qaynoq yoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash orqali porloq kelajak sari ishonchli odimlayveramiz.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Turizm

Qumlikdagi Feruza dengiz

Jizzaxda kishilarga ko‘tarinki kayfiyat beradigan betakror tabiat manzillari ko‘p. Shulardan biri Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimidir. Uning uzunligi 159 kilometr, eni 26 kilometrni, umumiy hududi to‘rt ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Aydarko‘lni mahalliy xalq “qumlikdagi feruza dengiz” deb nomlashi ham bejiz emas.

Ko‘l atrofida kam sonli aholi yashayotgani sababli bu yerning tabiati yovvoyi holida saqlanib qolgan. Mahalliy aholi so‘zlariga ko‘ra, Aydar-Arnasoy ko‘llarida qariyb yuzta orolcha mavjud bo‘lib, u yerda quyon, tulki, bo‘ri, silovsin, ondatra, to‘ng‘iz kabi hayvonlarni uchratish mumkin.

2008-yili Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimiga xalqaro muhofaza etiladigan ko‘llar maqomi berilgan. U mintaqada bioxilma-xillikni asrash, hayvonot va nabotot turlarini, noyob qush va baliqlarni ko‘paytirishda beqiyos ahamiyatga ega.

— Hududda qushlarning juda ko‘p turlariga duch kelasiz. Bu yerda o‘n sakkiz turkum, 57 oilaga mansub 314 turdagi qush yashaydi. 19 turdagi qush Xalqaro Qizil kitobga, 37 turdagi qush esa O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Hududgagina xos bo‘lgan o‘simliklar kishida ajib bir taassurot uyg‘otadi. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida baliqning 22 turi mavjud. Bugungi kunda ham ko‘lda baliq sonini ko‘paytirish, naslli baliq yetishtirish maqsadida turdosh korxonalar amaliy ishlarni davom ettirmoqda. Bu ko‘lda ovlangan baliq O‘zbekiston aholisining uchdan bir qismini baliq va baliq mahsulotlari bilan ta’minlaydi. Ko‘l manzarasidan, toza va musaffo havosidan bahra olish uchun kelgan har bir dam oluvchida baliq ovlash istagi paydo bo‘lishi tabiiy. Ammo bu hududlarda baliq ovlash uchun qator qoidalarga rioya qilish kerak. Ko‘l yaqinida ov qilish taqiqlangan. Lekin qo‘riqxona maydonidan tashqarida ov mavsumida ruxsatnoma bilan yovvoyi o‘rdak, g‘oz, tustovuq, baliq ovlash mumkin, — deydi Jizzax viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi matbuot xizmati boshlig‘i Zamira Abdullayeva.

Forish-Nurota yo‘lidan Aydarko‘lgacha masofa qariyb 25 kilometrni tashkil etadi. Ammo yo‘l tuproq va notekis. Ko‘lgacha yo‘lning ikki tarafida chorvadorlarning o‘nlab otarlariga ko‘zingiz tushadi. Bu yil ularning yili bo‘ldi. Seryog‘in bahor havosidan to‘yingan zamindan odam bo‘yi barobar keladigan shifobaxsh kavraklar, qizg‘aldoqlar va boshqa giyohlar unib chiqqan. Ushbu giyohlardan bahramand bo‘lgan sarmast qo‘yu qo‘zilar, echkiyu uloqlarning sakrab-sakrab o‘ynab yurishi ko‘zni quvontiradi. Qish fasli oxirida yoqqan qor va bahorgi yog‘ingarchilik Nurota tizma tog‘larida qurg‘oqchilik sababidan necha yillardan buyon suv chiqmayotgan buloqlarning-da ko‘zini ochdi. Ammo Nurota tizma tog‘laridagi qor va buloq suvlari Qizilqum cho‘llarida singib ketmoqda. Afsuski, kam dehqonlargina bu suvdan unumli foydalanmoqda. Quvonarlisi, yo‘ldan dehqonlarning zamonaviy issiqxonalari ham ko‘zga tashlanadi.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi tabiati va iqlim sharoiti turizmni rivojlantirish uchun juda qulay. Shu bois, ushbu qarovsiz yerlarni obod qilish, sayyohlarni jalb etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, 2022-yil 22-fevralda Prezidentimizning “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Mazkur hujjat bilan ushbu ko‘llarni boshqarish uchun “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi” MCHJ tashkil etildi. Uning asosiy faoliyat yo‘nalishi sifatida baliq ovlash hajmini ko‘paytirish, eksportbop va raqobatbardosh baliq mahsulotlari yetishtirish, ko‘llar tizimi hududida zamonaviy turizm infratuzilmasi obyektlarini (plyaj va suvda dam olish turizmi, ko‘llar qirg‘og‘i bo‘ylab sayr qilish yo‘laklari, mehmonxona majmualari, sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va turistik ahamiyatga ega boshqa obyektlar) barpo etish hamda sayyohlarga xizmat ko‘rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish kabilar belgilangan. Ammo qaror ijrosi to‘liq ta’minlanmayotgani sababli davlatimiz rahbarining yaqinda Jizzax viloyatiga qilgan tashrifida ham Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimida sayyohlar uchun sharoit yaratish bo‘yicha alohida topshiriq berildi.

Darhaqiqat, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi mavjud imkoniyatlaridan keng foydalanilmayapti. Jumladan, yakshanba kuni borganimizga qaramay, ko‘l bo‘yidagi sayyohlik maskanida birorta mahalliy yoki xorijlik sayyohni uchratmadik.

— Biz, asosan, xorijlik sayyohlarga xizmat ko‘rsatamiz, — deydi “Oxus Adventure” sayyohlik maskani ish boshqaruvchisi Ubaydullo Musaboyev. — Sayyohlar ko‘l bo‘yidagi zamonaviy kemping va milliy o‘tovlarimizda dam olish barobarida otda, tuyada, suvda sayr etishi, baliq ovlashi mumkin.

Xorijlik sayyohlarga xizmat ko‘rsatishi yoki boshqa raqobatchilar yo‘qligi uchunmi, bizga bir kunlik xizmat ko‘rsatish narxlari ancha qimmatdek tuyuldi. Balki mahalliy sayyohlar yo‘qligining sababi ham shudir.

Ko‘ldan taxminan o‘n kilometr uzoqlashganimizda sahro kemasi — tuyalar to‘dasiga duch keldik. Uzoqda besh kishi tabiat qo‘ynida rasmga tushyapti.

Ular bilan tanishdik. Mehmonlar Qirg‘izistonning O‘sh viloyatidan ekan.

— Ikki yildan beri o‘rtoqlarimiz bilan kelib, bu yerdagi tuya suti bilan davolovchi klinikada sog‘lig‘imizni tiklaymiz, — deydi o‘zini Abdumalik Ochilov, deb tanishtirgan mehmonlardan biri. — Bitta do‘stimizning jigarida ozgina muammo bor. Mana shunday kengliklarda turli giyohlardan oziqlanadigan tuya suti shifobaxsh ekan. Do‘stimiz o‘tgan yili kelib foydasini sezdi. Shu bahona biz ham davolanyapmiz. Kelganimizga besh kun bo‘ldi. O‘zimizni tetik sezyapmiz.

— O‘zbekiston yoqdimi, taassurotlaringiz qanday, — so‘raymiz mehmonlardan.

— Qirg‘izistonning o‘zbeklarimiz. O‘zbekistondagi o‘zgarishlar va islohotlarni doimo kuzatib boramiz, — deydi yana bir mehmon Murodjon Mirvoitov. — To‘g‘risi, sizlardagi obodligu farovonlik, tinchligu totuvlik, taraqqiyot va yutuqlarni o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib, ham xursand bo‘lyapmiz, ham havas qilyapmiz. O‘zbekiston barcha qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabat o‘rnatdi. Mana, hozir shu oqilona siyosat o‘z mevasini beryapti. Biz bu yerda xuddi o‘z vatanimizdagidek erkin yuribmiz.

— Ko‘l bo‘ylariga ham bordingizmi?

— Oldingi safar kelganimizda bormagan ekanmiz. Kecha borib keldik. Ko‘l bo‘yida sayyohlik uchun yaxshi joylar bor ekan. Ammo nimagadir ekosayyohlik sizlarda uncha rivojlanmagan. Bizning Issiqko‘l doimo mahalliy va xorijlik sayyohlar bilan gavjum. Oldindan band qilmasangiz, joy topish muammo. Ishonchim komil, agar sarmoyadorlarga imkoniyat berilsa, bu joylar ham sayyohlarning sevimli maskaniga aylanadi.

Mehmonlar bilan xayrlashib, tuya suti bilan davolovchi klinikaga yo‘l oldik. Cho‘l bag‘rida joylashgan va shahar sanatoriylaridagi sharoitlardan qolishmaydigan ikki qavatli klinikada boyagi qirg‘izistonlik mehmonlardan tashqari yurtimizning turli burchaklaridan kelgan bemorlar davolanayotganiga guvoh bo‘ldik.

— Termiz tumanidan keldim, — deydi Mohira Azimova. — Gepatit kasalligidan aziyat chekaman. Bundan oldin o‘n kun shu yerda davolanib uyimga qaytdim. Tahlillarim yaxshi chiqdi. Qaytib yana keldim, mana, hozir qariyb bir oydan beri davolanyapman. O‘zimni yaxshi sezyapman.

— Bolaligim mana shu tog‘lar etagidagi Uxum qishlog‘ida o‘tgan. O‘zim shifokorman. Ayni paytda Toshkentda yashayman, — deydi klinika egasi Davron Latipov. — O‘g‘lim gepatit bo‘lgach, odamlar tuya suti shifo bo‘lishini aytdi. Shunda maslahatlashib, shu yerdan joy olib, bitta tuya sotib oldim. O‘g‘lim tuya sutini ichib yaxshi bo‘ldi. Buni eshitib, odamlar kela boshladi. Qarasam, tuya sutiga talab kundan kunga oshyapti. Shu bilan tuyalar sonini ko‘paytirishga harakat qildik. Barakali jonivor ekan. Hozir tuyalarim soni ancha ko‘paydi. Odamlar shifo topib, duo qilib ketsa, o‘zimni baxtiyor sezaman.

Davron aka bilan ancha suhbatlashdik. Birga klinikada yaratilgan sharoitlarni, tuyalarini ko‘zdan kechirdik. Safarimizning asosiy maqsadi Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida sayyohlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni yoritish ekanini bilgach, tez-tez ko‘l bo‘ylariga borishini, ko‘l bo‘yida turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar borligini aytdi.

— Har safar ko‘l bo‘yiga borganimda o‘zim uchun shu yerda ekoturizmni rivojlantirish uchun rejalar tuzaman. Ammo to‘g‘risi, bu yerlardan joy olishda to‘siqlar mavjud. Agar joy masalasi hal bo‘lsa, ikki milliard so‘mgacha sarmoya kiritishga tayyorman, — deydi Davron Latipov.

Quvonarlisi, maqola tayyor bo‘layotganda Arnasoydan xushxabar keldi. Tumanning yangi hokimi Odil Musanov Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida turizm obyektlarini barpo etish maqsadida xorijlik investorlar bilan muzokara o‘tkazibdi. Ular ko‘l atrofida sayyohlik obyektlari barpo etishga oid yirik loyihalar bilan tanishtirilgan. Ko‘l sohillariga borib, turizmga mo‘ljallangan obyektlar qurilish joylarini ko‘zdan kechirgan. Investorlar tumanning Navro‘z qo‘rg‘onini turizmga mo‘ljallangan shaharchaga aylantirish taklifini ham ilgari surgan.

Muzokaralar o‘z samarasini bersa, tez orada Arnasoy ko‘li sohilida zamonaviy kempinglar, mehmonxonalar va xostellar, savdo do‘konlari, sport maydonlari, bolalar o‘yingohlari qad ko‘taradi. Yurtimiz durdonalaridan biri bo‘lgan Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi chin ma’noda yirik ekoturizm markazlaridan biriga aylanadi.

Farhod NE’MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1607.
44034 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Boboravshan G‘oziddinov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 22:55 Topshirildi — 23:25